

ATHAM AMIN NEMUTLU

Noto'g'ri HAYOT To'g'ri Yashalmaydi

Real voqealar asosida...



Ethem Emin Nemutlu

**NOTO'G'RI
HAYOT
TO'G'RI
YASHALMAYDI**



BEST BOOK
NASHR

Toshkent - 2022

***“BEST-BOOK” nashriyoti ushbu kitobni Turkiya
yozuvchisi bilan tuzilgan shartnoma asosida chop etdi.
Agar kitobning oldi muqovasida qalbakilashtirishdan
himoyalovchi vosita – gologramma bo‘lmasa, demak bu
kitob qalbaki. Darhol +99 871 200-98-99 telefon
raqamiga qo‘ng‘iroq qilishingizni iltimos qilamiz!
Buning uchun sizdan benihoya minnatdor bo‘lamiz
va sizga kitob sovg‘a qilamiz.***

UO‘K 821.512.161-3

KBK 84(5Tur)

N 44

Ethem Emin Nemutlu.

**Noto‘g‘ri hayot to‘g‘ri yashalmaydi [Matn]: / Ethem Emin
Nemutlu. – Toshkent: BEST-BOOK, 2022. – 156 b.**

© Ethem Emin Nemutlu

© “Olimpos” yayinlari &c

“Akdem Telif Haklari ve Tercume”
ajansi.

© “BEST-BOOK” nashriyoti, 2022.

ISBN 978-9943-8604-5-2

Ethem Emin Nemutlu

**NOTO'G'RI
HAYOT
TO'G'RI
YASHALMAYDI**



Tayyor bo'lsangiz, boshlaymiz





Insonning o'ziga o'zi
tasalli berishi naqadar qiyin,
naqadar achchiq...





O'zimni juda yomon his qilgan bir kunim edi, juda yomon. O'zimga to'xtamay savol bergan, lekin savollarimga hech qanday javob topa olmagan yana bir kunim!

Albatta! Har doimgidek...

Quyosh boshimni eritib yuboradigan darajada qizdirayotgan edi. Qo'lim bilan sochlarimni ushlab ko'rganimda tushundimki, soyaroq bir joy topib, panaga o'tishim kerak. Boshim choy qaynatgudek bo'libdi!

Ro'paramda turgan ulkan devorlar tomon yo'l oldim. Panaga o'tib olgan bo'lsam ham ichimdagi behuzurlik meni ta'qib qilardi. Necha kundan buyon shunday emasmidim, aslida!

Aslida, hamisha shunday emasmidim!

O'zimni qanday his qilayotganimni senga ta'riflay, do'stim. Juda ulkan bir devor, yo'q-yo'q, juda ulkan bir bino ustimga qulayotgandek edi. Zotan, bu devor, kechirasiz, bino bolaligimdan beri ustimga yiqilgan! Bu muammoning ta'rifi yo'q, lekin u ruhimga, badanimga, yelkalarimga og'irlik qilayotgandi va aslo ko'nika olmayotgandim bu ta'rifsiz muammoga...

Qutulolmayapman bu ichimdagi iztirobdan, qutulolmayapman. Oxiri yo'q, huzursiz, yaralovchi va tartibsiz bir iztirob bu. Oxiri ko'rinmaydi!

Chuqur-chuqur nafas oldim. Ichimga singdirgan havoni, muammoimga qarshi urush deb bilib "uf" deb ichimdan chiqardim. Sog'lom fikrlay olmaganim uchunmi, ketishni xohlamaganim uchunmi bilmayman, mashinani ham juda uzoqqa qo'ydim, nega bu qadar uzoqqa qo'ydim?

Quyosh ham tinch qo'ymaydi, terdan ko'ylagim ustimga yopishib qoldi. Kostyum kiyishga majbur bo'lganim uchun ham dim havodagi behuda rasmiyat insonni o'ldirgudek!

Soatimga qaraganimda yigirma daqiqa borligini bildim. Kutish azobidan ham terlayotgan edim. Ko'zlarim bir burchakda turgan zotdor itga tushdi. Issiqdan toliqqan. Ko'z-ko'zga tushdi, u menga bir nimani tushuntirmoqchi bo'lgandek qarayotgandi. Unga yaxshilab nazar soldim. Ko'rkam itga diqqat bilan qarab, orqasidagi dori surtilgan joyni ko'rib qoldim.

Hokimlikning tana jarohatlari bo'lgan hayvonlarga suradigan yashil dorisi ostidagi ochilgan teri; birdan butun diqqat-e'tiborimni teriga, itning og'rig'iga, halovatsizligiga qaratdim va ichimdagi dard yanada ortdi!

Ko'rgan har qanday voqeani, eshitgan har qanday ovozni, har qanday salbiy narsani xuddi o'zimning dar-dimdek, o'zimning muammomdek qabul qilib, og'riq his qilishga ochiq, ta'sirchan, nozik ongga ega edim! Ha, inson shunday bo'lishi lozim, ammo menda ko'proq!

Atrofimda hech kim yo'q edi, ana o'sha itdan boshqa hech kim. Ammo, kimdir eshitib qolgandek qo'rqib, hatto

o'zim bilan ham baland ovozda gaplasha olmayotgandim. Past ovozda o'z-o'zimga shunday dedim:

– O'zingga kel, Efe, o'zingga! Agar sen o'zingni boshqarmasang, ichingdagi jonivor seni boshqaradi! O'tmishni esla! Qanday qilib u seni o'z nazorati ostiga olib boshqargan edi. Bunga boshqa ruxsat bermayman deb so'z berganding, esla!

Ichimdagi jonivor bilan do'st emasdik, hatto o'zaro dushman edik va u aslo menga yaxshilik tilamaydigan, xudbin jonivor edi! Biroz tinchlanishim kerak. Yana soatga qaradim. Oz qolgandi, oz. Bu ham o'tadi, dedim o'z-o'zimga, o'tib ketadi. Ko'zimni yumdim. Halovatsizligimni buzgan barcha narsadan bir onga uzoqlashishga intildim. Quyoshdan, toshli, ulkan devorlardan, nomutanosib qurilgani uchun xunuk ko'ringan uylardan, hatto o'sha ko'rkam itdan!

Boshimni egdim va ter hidi o'rniga xushbo'y atirimni hidladim. "Oh dedim", yengil tortdim.

Xullas, barchasi idrok masalasi, do'stim. Sen nima-ni qanday ko'rishni xohlasang, shunday ko'rasan, onging filtrlaydi va senga taqdim qiladi. Sen esa qabul qilasan. Barcha narsa xayolotdan iborat.

"Atirgulni xayol qilki, guliston bo'lsin", dedim o'zimga o'zim. Yaxshi narsalar bor, yangi va go'zal narsalar...

Suyanib turgan devorimdan o'zimni to'g'riga itarib qutuldim. Qo'limdagi zamonaviy charm sumkani yerga qo'ydim. Kostyumimning qo'llarini to'g'riladim. Ro'paramda ko'zgu bordek ko'zlarimni ochdim. To'g'riga qarab ko'ylagimning yoqasini, bo'yinbog'imni yaxshilab to'g'riladim. Buzilgan sochlarimni to'g'rilash uchun

qo'limni uzatganimda terlaganimni bilib, ro'molchamni chiqardim. Sochlarimni quritib to'g'riladim.

“Tayyorsan dedim, tayyor. Qani bo'l, Efe, bo'li” deyishim bilan ongimdagi ovoz yana gapirishni boshladi.

– Nima qilyapsan bu yerda?

Baqirgudek gapirayotgandi ongim!

Rostdan ham nima qilyapman bu yerda?

Men nega bu yerdaman?

Nega keldim, nega?!

32 yoshimgacha davomiy ravishda buzib-buzib, yana qaytadan qurgan hayotimning uddasidan chiqishga harakat qilar ekanman, birozgina yashaydigan, ko'radigan va his qiladigan holatlarga tayyormidim?

O'zimga achinishni yaqindagina to'xtatmadimmi?

Ichimdagi yarador o'spirinning voyaga yetmagan ruhiyati bilan kurashar ekanman, unga foydali maslahatlar berishga harakat qilar ekanman, rostdan ham bunga tayyor edimmi?! Taslim bo'la olmasdim. Taslim bo'lsam, mag'lub bo'lardim, shunday emasmi? Taslim bo'lmayman. Insonlar va ichimdagi bola qanchalik harakat qilsa-qilsin, voz kechmayman!

Insonlarmi? Insonlar achinarli holga kelmadimi? Xoh qarindoshi bo'lsin, xoh o'rtog'i, do'sti: “Bir xato qilsin”, “Uddalay olmasin”, deb har ishiga bolta urmayaptimi?! So'ngra esa uddalay olmaganingni ko'rib: “Ey qo'yaver, shu holimizga ham shukur, ana ko'rdingmi?”, – deya o'z hollariga shukur qilmayaptilarmi?! “Afsus”, deyдилar, ammo

o'zlariga zarar berganlarini o'zlari bilmaydilar! Bunday tushunganlar ojiz!

Uddalay olmaslik yo'q! Voz kechish yo'q!

Ichimdagi halovatsizlikning yuzimda ko'rsatgan huzunini yo'q qilish uchun o'zinga o'zim tabassum qildim. Tabassumga yetadigani bormi?! Va qadam tashladim, kirish yo'lida meni kutayotgan xodimlar tomonga to'g'ri yurdim. Sumkamni yerga qo'ydim va jilmaygan holda guvohnomamni uzatdim.

Qadam tashlashni, boshqalarga tabassum qilishni uddalagan edim. Xavfsizlik xodimi guvohnomamni ko'rib so'radi:

– Psixolog Efemisiz?

– Ha.

Hujjatni ushlab turgan xodim xodimlar xonasiga kirib, stolda jiringlayotgan telefon go'shagini qo'lga oldi va eshitilmaydigan ovozda gaplashishni boshladi. Bu orada boshqa xavfsizlik xodimi oldimga keldi. Ruksat berilgach, ust-boshimni tekshirishsa kerak, deb o'yladim. Bezovta bo'layotganimni bildirmaslik uchun jilmayishga harakat qildim, biroq yuzimdan oqayotgan tomchilar bezovtaligimdan darak berardi. Terni qo'lim bilan artib tashlagim keldi, lekin qo'llarim titrardi. Bilaklarimni silab, o'zimni tinchlantirishga harakat qildim. Bu orada xonadan xavfsizlik xodimi chiqdi.

– Marhamat, sizni kutishyapti.

Ust-boshimni tekshirdilar va ikki-uch qadam tashlagach, to'xtab qoldim. "Sizni kutishyapti", deb nimani


nazarda tutdi? U yerda telefon orqali kim bilan gaplashdi? Nimadir bo'ldimikan? Kimdir men haqimda nimadir dedimi? Aqlimga turli xil gumonlar bo'rondek kelayotgandi, bezovtaligimni ortiq nazorat qila olmayotgandim va takror-takror o'zinga shu savolni berdim:

“Men nima qilyapman bu yerda!!!!”



"Mening nima ishim bor bu yerda?"
degan his qayerga borsang ham
seni qo'yib yubormaydigan bir hiski, do'stim,
qayerda nima ishing borligini aslo bilolmaysan,
hech qayerdan halovat topolmaysan!







Va nihoyat, ichkariga kirdim. Baland tomli binoning uzun yo'lagidan yonimdagi xodim bilan yurib ketar ekanmiz, qulf solingan eshikning yonida to'xtadik. U qo'lida hozir-u nozir turgan guvohnomasini devordagi qurilmaga qo'ygan edi "klik" degan ovoz eshitildi. Eshik ochildi. Bu men sanagan beshinchi eshik edi. O'sha damda shunday o'yladim: koshki, ongimning eng chekka burchaklariga kirish va ongimdagi jarohatlar bilan qulflangan eshiklarni ochish shu darajada oson bo'lsa!

Mayli, nima bo'lsa-bo'ldi, oldimda yurib ketayotgan xodimning tashlagan har qadamida orqasidagi zanjirning chiqarayotgan ovozi diqqatimni bo'lsa ham, uning qadamlarini kuzatishda, ortidan yurishda davom etdim.

Yana bir eshikdan o'tganimizda telefon uchun navbatda turgan mahbuslarni ko'rdim. Tor yo'lakda xodimning ortidan yurib ketar ekanman, meni kuzatayotgan ayollarga qaramaslikka intildim. Boshimni xam qilib ketayotganimda bir ovoz eshitdim:

– Voy, uyaldi! Xa-xa-xa-xa!

Kulgilar! Aqlimda yana aks-sado.

Aniq men haqimda gapirishayotgan edi. Xodim qayrilib qaraganida rostdan ham yuzimda uyat ifodasini ko'rib,

menga: "Qo'rqma, bu yer shunday. Hammaga shunday qilishadi, sen uchun maxsus emas", – dedi.

Shu onda tinchlandim. O'zi hamma joyga qarab, kuza-tib chiqmoqchi edim, lekin ko'zimni yerdan uzmay davom etish yaxshiroq tuyilgani uchun yo'lakka chizilgan to'g'ri chiziqdan ko'zimni uzmadim.

Xayolimdagi fikrlarda qotib qolish odatim bor, bu holat har joyda o'zini namoyish qiladi. Hech kim buni sezmasin deya, yerga chizilgan chiziqlarning tashqarisida yurib, atrof-dagi insonlarning buni sezmasligi uchun g'ayrat qilayotgandim.

Bu chiziqlar tugamaydi, shekilli, deb turganimda, "Keldik", – dedi xodim.

Boshimni ko'tarib, forma kiygan bir ayolni ko'rdim. Yoniga bordim. Jiddiy nigohli ayol ham biz tomon bir qadam tashladi. Nihoyat, ko'rishdik va u qo'lini uzatib:

– Men Nurgul Y., qamoqxona mudiri yordamchisiman, dedi.

Ayolning bergan ma'lumotini tekshirish uchun bo'ynidagi yorlig'iga qaradim. Ismi, sharifi, ishi to'g'ri edi.

– Men esa psixolog Efe T.

Ayolning ko'rsatgan yo'nalishi bo'yicha shiftida yoritishga harakat qilayotgan lampalari bor-u, biroq yoritilmayotgan, bo'g'ish va siqish sifatiga ega bo'lgan xiragina bir xonaga o'tdik.

Xonaning o'rtasida turgan to'g'ri to'rtburchak shaklidagi metall stolning yoyiq turishi bezovtaligimni oshirgan bo'lsa-da, unga e'tibor bermaslikka harakat qildim va ko'rsatilgan stulga o'tirdim.

– Psixologimiz Fotima B. ishdan ruxsat olgani va narkotikka qaram bo'lib qolganlar xususida mutaxassis bo'lganligingiz uchun bir necha kun biz bilan birga ishlaysiz.

– Ha, xabarim bor.

Jiddiy qarashli ayolning ikki qoshi o'rtasiga iz solgan qalin chiziqlarga qarab qoldim, ayol esa davom etdi:

– Bundan oldin qamoqxonada muhitida bo'lganmisiz?

– Magistrlik himoyasi uchun kelgandim.

– Ammo siz bu yerni bilmaysiz. G'oyatda e'tiborli bo'lishingizni qat'iy ravishda tavsiya qilaman.

Ayolning e'tiborli bo'ling degach, qat'iy ravishda deyishiga hayron bo'lib, ogohlantirishini eshitmaslikka olib, mavzuni o'zgartirishga harakat qildim.

– Ilk bemorimning ismini bilsam bo'ladimi?

– Tasodifan biror shoshilinch holat yuzaga kelmasa, faqat bitta bemor bilan shug'ullanasiz!

Men javob bermagach, ayol davom etdi. Ko'zlarim stol ustidagi kir va eskirgan kuldonga ketdi. Ayol jiddiy ovozda davom etdi:

– Hasrat KURTULUSH¹. Familiyaga qarang-aaa!

Ko'zlarimni ko'tarib, qaradim, qaradim va “Nega unday dedingiz?” deb so'rashdan oldin aqlimdan kamida uch marta o'tkazdim.

Nega unday dedi?

Nega unday dedi?

Nega unday dedi?

¹ Qutulish, najot, ma'nolari bor.

– Nega unday dedingiz?

– Ko'rsangiz tushunib olasiz, psixolog. Yashashdan shu darajada voz kechganligi ko'zlaridan, yuzidagi chiziqlaridan ma'lum. Va shu sababli, faqat shu sababligina hech qaysi qoidaga, hech qaysi tartibga, hech qaysi muhitga rioya qilmaydi, hurmat ham saqlamaydi.

Barmog'ini og'ziga olib borib namlagach, stolda turgan bukilgan papkani to'g'rilab qo'ydi va bir sahifasini ochdi.

– Jamiyatda rioya qilinadigan qoidalarga bu yerda ham amal qilinadi. Ishni taqsimlash, soatlarga rioya qilish va kelisholmasalar ham ko'nikib yashash. Bu qoidalarga rioya qilishga majburlar...

– O'zingizning yaratgan qoidalarangiz haqida gapiryapsizmi?

– Bu yerdagilarning bizning qo'ygan qoidalarimizdan tashqari butunlay boshqa bir tizimlari bor, psixolog. O'zaro mayda guruhlariga bo'linib olishgan. Zaiflarning panohi bo'lgan kuchli toifalar, kuchlilarning ehtiyojlarini bajo keltiradigan zaif toifalar bor. Guruhlarning o'zaro alohida qoidalari va bir-birlariga qarshi qo'llaydigan g'alati munosabatlari bor. Ajralib turuvchi toifalar, afsuski, sevilmaydilar, sevilmagach esa insonlarni o'zlariga yaqinlashtirmaydilar.

– Xo'p, yaxshi. Ajratib qo'yilganlarga nima bo'ladi?

– Oson o'lja bo'ladilar, psixolog, oson. Ajratib qo'yilgan barcha uchun o'lja bo'ladi. Insonning o'zini qabul qilishlari uchun qo'llaydigan harakati ham bor bu yerda va u hayot-mamot masalasidir!

Gapini tugatgan ayol o'rnidan turgach, men ham o'tirgan joyimdan turdim.

Ayol davom etdi, "Hasratni juda yomon kaltaklashibdi, psixolog. Qovurg'a va oyoq-son qismida yoriqlar borligi uchun o'tgan oy kasalxonaga jo'natib yubordik. To'rt kun oldin tibbiy bo'limga qabul qilindi. Qisqasi, bir o'limdan qaytdi desak ham bo'ladi. Kurtulush-da, lekin o'limdan ilk qaytishi yoki qutulishi bu emas!

– Hozir ahvoli qanday? – deb so'radim to'mtaygan ovoz bilan.

Savolimga javob ham bermay, yuzimga qarab, uchli poshnali poyabzali bilan mening ustimdan hukmronlik o'rnatmoqchidek qattiq-qattiq qadam bosib, xonaning eshigini ochib yo'lakka chiqdi. Qo'limga olgan charm sumkam bilan uning ortidan ergashdim.

U yurishda davom etdi. Uning ortidan ergashar ekanman, aqlimdagi savollardan ko'ra namlik hidi meni qamrab ola boshlagandi.

Uzun yo'lakning oxirida bizni kutayotgan oq xalatli ayolni ko'rib, tibbiy bo'limga yetib kelganimizni bildim. Ayol bilan ko'rishdim va nim tabassum qildim, ammo bu tabassum men uchun juda qiyin edi.

Yolg'ondan, soxtalarcha... Niqob taqishni uddalay olmasdim.

Butun hayotim, o'sha hashamatli yashash tarzim, uyim, hovuzim, barchasi qamoqxona tashqarisida qolgandi. Hatto, ki, biroz avval jigarimning har bir burchagini egallab olgan o'sha namlik hidiga allaqachon ko'nikib bo'lgandim.

Bu yerdagi muhitga ko'nikishni boshlagandim, lekin ruhiy o'zgarishlarimga hech ko'nika olmayotgandim.

Shifokorning ko'zlarida shunday bir qarash bor ediki... baxtsiz, istaksiz... Zotan, harakatlari ham tezroq tugasaydi deyotgandek edi. Men esa qiziquvchan ko'zlarim va aqlimdagi fildek katta savollar bilan ayolning ortidan ergashdim.

Tibbiy bo'limning eshigidan kirganimizda, mudir yordamchisi yo'g'on ovozi bilan zirhlangandek menga yuzlandi.

– Charchamang, janob psixolog!

Mening javobimni kutmasdan ortiga qayrildi. Orqasiga yig'ilgan oq sochini ushlab, biroz avval kelgan uzun yo'lagimizdan to'g'ri qattiq odimlar bilan yurishni boshladi.

Pardalar bilan ajratilgan, uchta alohida yotoqlari bo'lgan tibbiy bo'limni nam hid o'rniga o'tkir bir dori hidi egallagandi. “Charchamang”, degandi, ajabo, juda qiyin ekanmi?! Boshim, voy, boshim.

Yonimga kelayotgan shifokor ayol past ovozda gapirishga harakat qilib:

– Bemorga biroz avval ruxsat berdim. Uchrashuv xonasida sizni kutyapti, – dedi va dori tokchasining yonida qolgan, stolning ustidagi qog'ozni imzolab, menga uzatdi.

Ayolning qilayotgan har bir ishi g'ashimga tegayotgandi. Istaksiz degandim-ku, shu holatni haddan ortiq “tugasa-da, ketsak” tarzida ifodalayotgandi. Bu asab buzuvchi holat edi, chunki ichkaridagi mahkum bo'lsa-da, baribir inson edi!

Qog'ozni qo'limga oldim. Jarayonni bilmaganim uchun hayron nigohlarim bilan "Nima qilaman bu qog'ozni?" deb o'zimga savol berib turganimda, ayol tushungandek:

– Uchrashuvingiz bitgandan keyin sizning ham imzongiz kerak bo'ladi. Hozircha sizda tursin, – dedi va shuni qo'shib qo'ydi: – Hasrat o'zi yaxshi ayol. Faqat bu yerda unga ko'p bosim o'tkazishyapti, biroq bu yerda har doim hammaga bosim o'tkazadilar!

O'sha vaqt butun diqqat-e'tiborimni qaratdim, bemorim haqida gapirganini bildim va eshitishda davom etdim. U kulimsirab davom etdi:

– Ayni hayotdagi kabi shifokor, lekin bu yerda masofalar chegaralangan. Mahkumlar bu yerga jazo olish uchun yuborilgan deb o'ylaydilar doim, biroq bu yerda ular uchun yangi bir hayot boshlanadi. Hech kim qirq qamchi bilan bir kunda tarbiya qilinmaydi, shunday emasmi? Bu tartib har kuni oz-ozdan mahkumning umidini o'g'irlaydi. Tizim aynan shunday, umid o'g'irlanishi nomiga qurilgan!

Nima deyishni bilmay qoldim, tajribasizligim o'ziga qaram qilib olgandi meni, qarab qoldim xolos.

– Ishchilarga ham yuqadi bu umidsizlik, psixolog. Inson ko'rganlariga insoniy munosabat bildirib, baholamasa, insonligi qoladimi? O'tgan hafta 17-yilimni to'ldirdim bu yerda. Son-sanoqsiz mahkum, son-sanoqsiz hikoya, son-sanoqsiz og'riq ko'rdim, tanidim, faqat, rostdan ham bemor bo'lib, tibbiy bo'limga kelganlarning soni, ishoninki, qo'lingizning barmoqlaridan o'tmaydi!

Shunchaki qarab qoldim, xolos. Aqlimdagi savollar ham go'yo yo'q bo'lgandek, o'rniga marhamat tuyg'usini qoldir-

gan edilar. Shifokor menga qaradi. Bo'sh turgan yotoqning yonidagi stulga o'tirdi va davom etdi.

– Bu yerga kelish sabablari doim bir xildir, psixolog. Yoki ajralib turganligi uchun tayoq yegandir yoki kuchini ko'rsatish uchun mushtini ko'rsatmoqchi bo'lganda boshqa kuchini ko'rsatgan mahkumdan yoki mahkumlardan tayoq yegandir yoki rostdan o'lgisi kelgani uchun topgan har qanday yo'li bilan joniga qasd qilishga harakat qilgandir yoki bo'lmasa ichkaridagi bir xavfdan uzoqlashish uchun o'ziga zarar berib, bu yerga yotqizilgandir. Psixolog, ishonasizmi? Bu yerni, bu xonani dam olish maskani deyдилar. Tashqaridagi insonlarning ko'rishni xohlamaydiganlari, hatto eshitishni ham xohlamaydiganlari qamoqxonaning tibbiy bo'limi. Qanday og'ir bir jumla, qamoqxonaning tibbiy bo'limi! Men ba'zan ish joyimni aytganimda, qamoqxona tibbiy bo'limi deganimda ham nigohlardan shuni uqaman. Qanday joyda ishlaydi-ya, deb achinib qaraydilar, lekin ichkaridagilarga ko'p hollarda bu yer qutulishdir!

To'xtamay davom etdi. Men ham to'xtashni xohlama-dim. Chunki bilishni, eshitishni, o'rganishni xohlayotgandim.

– Bu devorlardan ichkariga kirganingda qaysidir bir guruhning parchasi bo'lasan, psixolog. Bu, men yoki sen bo'lsang ham farqi yo'q. Ma'sumligiga ishonganing bir mahkumni himoya qilish uchun uni tomoniga o'tar va olgan ma'lumotlaringni do'stingni siridek saqlaysan. To'g'ri uslub bu, shunday emasmi? Yaxshi shifokor kaltaklaganni o'rganganida buni boshliqlarga bildirishi kerak. Qoidalar shunday bo'lsa ham ayta olmaysan, psixolog. Alloh ke-

chirsin, ichigda saqlaysan. Nega deb so'ramasingdan oldin aytay, tayoq yegan yanada ko'proq zarar ko'rmasin deb.

Qo'lini stulning metal qabariq joyiga qo'yib, chuqur nafas oldi.

– Sen psixologsan, bilasan. Insonning tuyg'ularini, xatti-harakatlarini va asliyatda ko'ringanning ko'ringanidek emasligini mendan ko'ra yaxshiroq bilasan, ammo qo'limizdan nima ham kelardi.

Devorga osilgan eski taxtali soatga qaradi va o'rnidan turib dedi.

– Uchrashuv xonasi yo'lakning oxirida, o'ngda.

Ichimdagi halovatsizlik meni tark etgandek edi. Go'yo-ki, ketayotgan xonangda yanada halovatsiz bo'lasan degandek tark etib ketgandi. Yurayotganimda qo'llarimning harakati bilan tomog'imga tomon ketayotgan bo'yinbog'im ham ortiq bo'g'mayotgandi. Rohatlanish uchun chuqur nafas olishga ehtiyoj ham sezmayotgandim. Qamoqxonaning tibbiy bo'limi naqadar og'ir jumla edi!

Hayajondan asar ham qolmagandi, hissiz bir ruhga aylangandek edim. Qo'limdagi faylni ko'zdan kechirishda davom etayotgandim.

Hasrat Kurtulush. Ellik yoshda, turmush qurmagan, giyohvand moddaga o'rganib qolgan, jinoyat sodir qilganlik ishi bo'yicha hukm qilingan. Qamoqxonada qilgan ishlari ham qo'shilgach, o'ttiz uch yildan beri umuman tashqariga chiqqan olmagan.

O'ttiz uch yil, do'stim, o'ttiz uch yil aytishga oson! Tashqarida oson-da, ichkarida-chi? Tushunyapsanmi, o'ttiz uch yil...

Bundan oldin to'rt marta giyohvand moddaga qaram bo'lganligi uchun davolangan ekan. Qog'ozlardagi yillarga qaraganda barchasi uchun ichkarida davolanganini bildim. Fayldagi ma'lumotlarni aqlimdan o'tkazar ekanman, uchrashuv xonasini sekingina ochdim.

Shift chiroqlari yoritishga harakat qilgan, lekin yori-ta olmagan yana bir xona. Ruhlar olamiga kirayotgandek ruhimni ostonada qoldirdim va ichkariga oyoq qo'ydim.

Orqasi eshikka ters o'girilgan stolda o'tirgan, boshi to'g'ri yuqoriga qaragan bir ayol. Bir inson, bir hayot!

Hasrat Kurtulush.

– Salom, – dedim kirar-kirmas, lekin hech qanday javob ololmadim. Eshikni yopdim va menga ajratilgan stolga o'tirdim. Bu orada angladimki, ko'zlari yumilgan, shiftga to'g'ri boshini yo'naltirgan, go'yo duo qilayotgandek holat-da edi. Tushunmadim, bir tomondan uxlayotgandek ham edi. Sumkamni yerga qo'yayotib, faylni va yondaftarimni shoshmasdan stol ustiga qo'ydim. Yoga bilan shug'ullana-yotgan bir donishmandning huzurli qiyofasida qarshim-da turgani bois uning sukunatini bo'lgim kelmayotgandi. Darrov uni tahlil qilishni boshladim. Ko'zlarining ostidagi ko'karishlar shu darajada aniq ediki, siyohrang ham emas edi, qop-qora! Terisidagi barvaqt qarish belgilari go'yoki yuz ifodasiga yigirma yil avval o'rnashib olgandek. Qabul qilgan giyohvand moddalari tufayli esa terisidagi sarg'ayish va muammoli teri o'zini namoyon qilmoqda. Yarim bilak ochiq qolgan qo'l qismida igna yoki giyohvand modda qabul qilganini ko'rsatuvchi biror, bir iz qidirar ekanman, yupqalashgan terisidagi ko'karishlarni darrov ko'rdim.

O'tgan oy tayoq yeganini bilganim uchun yuzida yoki bo'ynida, ko'ra olishim mumkin bo'lgan birorta yerida tayoq izlari bormikan deb qidirdim, lekin yo'q edi.

Mudir yordamchisining gapi xayolimga keldi: "Qovurg'a va oyoq-son qismidagi yoriqlar". Eshitish muammosi yo'q edi papkasida, demakki, meni eshitgan, ichkariga kirganimni his qilgan bo'lishi kerak, faqat hech qanday munosabat bildirmayotgandi. Ko'zlari yumilgan holda kuyayotgandi.

Yondaftarchamga ilk jumlani yozdim:

Himoyaga tayyorlanyapti...



"Unutilish insonni o'ldiradi" degan jumlani
o'ziga shu darajada loyiq ko'ribdiki,
o'limni yashayapti deysan go'yo.







Vujudining holati himoyaga o'tganga ham o'xshamayotgan edi. Ikki qo'li yelkalaridan yonga tomon tushib turar ekan ko'zlari yumilgan, orqaga egilgan boshi bilan shiftga to'g'ri qarab yotgandi faqat. Mehribon ovozda gapirishga harakat qilganча unga yuzlandim:

– Hasrat xonim, salom.

Shiftdan tushib turgan nurning shundoqqina ostida uxlab kutayotgandek bo'lgan Hasrat xonim hech qanday munosabat bildirmayotgandi, ammo bir zumda ko'zlarini ochdi. Etni junjiktiradigan, lekin ma'sum bir qarashi bor edi. Biroz avval ichimdan uloqtirib tashlagan o'sha halovatsizligim Hasrat xonim bilan ko'z-ko'zga tushganda yana seldek ichimni to'ldirdi. Titrayotganimdan hayajonlanganimni tushunib, boshini yana biroz pastga tushirdi. Mazax qilayotgandek yengilgina kulib so'radi:

– Sen psixologmisan?

Ichkariga kirganimdan buyon hech kim menga ismim bilan murojaat qilmagandi. Hamma menga kasbimni aytib murojaat qilayotgandi. G'alati bo'layotgandim, lekin u menga shunday qaradiki, bu ichimni teshib yuboruvchi va bezovta qiluvchi nigoh edi. Tezroq qochib-qutulishni xohlagandek darrov javob berdim:

– Ha, men.

– Qani, meni davola-chi?!

– Xohlasangiz, biroz suhbatlashaylik, Hasrat xonim, tanishaylik.

– Yolg'on eshitmoqchi bo'lsang, aytib beraman, psixolog, muammo yo'q. Bu yerdagilarning asosiy ishi yolg'on.

– Yo'q, Hasrat xonim. Men bu yerlarni bilaman, xavotir olmang. Ichingizdagi gaplarni bilib olishga harakat qilmayman. Shunchaki, siz bilan tanishmoqchiman. Shu tarzda siz bilan yaxshiroq munosabat o'rnatamiz.

– Ya'ni, sen meni kasalxonadan kelganimni bilasan va menga qilingan zo'ravonlik bilan bog'liq hech nimani bilmoqchi emassan, shundaymi?

– Ha, xuddi shunday.

– Jabrlanuvchining aytganlarini boshqasiga yetkazib, kechqurun uyingga borib bermalol dam olging kelmayapti, shundaymi?

– Yo'q, albatta. Men shunchaki, sizdan xavotir olyapman.

Bo'limdagi shifokorning aytganlari miyamning aniq bir qismiga joylashgan edi. Ro'paramda o'tirgan Hasrat xonim menga qarshi qo'llagan himoya tarzi aslida menga emas, mening undan olmoqchi bo'lgan ma'lumotlarimga qaratilgan edi.

Ilk marotaba aslicha munosabat bildirdi. Qattiq qah-qaha otdi.

– Oxirgi marta mendan maktabda xavotir olishgandi, psixolog. Bir-birimizni aldamaylik. Men kimmanki, sen mendan xavotir olasan!

– Insonsiz Hasrat xonim. Bu men uchun yetarli. Xoh ishonimg, xoh ishonmang, ammo nima sababdan mahkumligingiz yoki boshqa mahkumlar haqida menga aytib berishingiz, mening ular haqida sizga aytib berishim yoki shu kabi boshqa biror narsa bilan ishim yo'q. Mening yagona xohishim o'zingizni yanada yaxshi his qilishingiz, xotirjam his qilishingiz. Menga maktabingiz haqida aytib bering, sizdan xavotir olishgan vaqtlari haqida aytib bering. Qarang, yondaftarchamni ham yopib qo'yyapman, – dedim va yopdim.

Qarshimda hayrat to'la ko'zlar bilan qarab qoldi va u ko'zlar menga ishongandi.

– Rahmat, lekin mendan filnikidek xotira kutma. Umrbo'yi giyohvand moddaga qaram bo'lib qolgan bittasidan eslashni xohlayotganing u kunlar... Imkonsiz-da, psixolog.

– Nima haqida aytib bersangiz ham, uni eshitaman.

– Rostdan eshitasanmi?

– Albatta, eshitaman.

– Mavzuni qamoqxonaga olib kelib, ichimdagilarni bilishga harakat qilmaysan-a?

– Va'da beraman, harakat qilmayman.

Biroz muddat o'ylab oldi, keyin tartibsiz bo'lib ketgan sochlaridan bir tutam qo'liga olib, o'ynab aytib berdi. Bu harakatlari bilan ellik yoshdagi Hasrat xonim ketib, o'rniga kichkina bir bolakay kelib qolgandek edi go'yo.

– Aslida, onam yomon inson emas edi, psixolog. Menimcha, meni yaxshi ko'rardi. Kaltaklardi, lekin sevardi. Shunday bir tarsaki tushirganda boshqa qo'lingni ham

qo'lasan-ku... O'zingning qo'lingga tarsaki tushirasani joni og'rimasin deb. Ana shu daqiqalarda ko'zimiz ko'zimizga rushardi, meni yaxshi ko'rishini his qilardim. Kaltaklaganda shafqatli bo'lardi, ammo men tilanchilikni o'sha yillari boshladim, psixolog. Barchaning ko'zidan sevgi so'rardim va ololmasdim o'sha sevgini, psixolog. Otam, eh otam! U unday emasdi. Menimcha, u inson emasdi, psixolog. Umri davomida hech qanday ishda ishlamagan bir inson! Davomiy ravishda haqorat qilar, yerga urar, lekin bizdan cheksiz hurmat kutardi. Bunday otani hurmat qilib bo'ladimi, psixolog?!

Bir necha marotaba ketma-ket burnini tortib, chap qo'lining bosh barmog'i bilan xohlar-xohlarni ustki labini, burnining shundoqqina ostini artdi. So'ngra boshini uch-to'rt marta o'ngga-chapga burdi. Ta'sirlangach, giyohvand moddaga qaram bo'lib qolishiga doir xotiralar ham yuzaga chiqqandi. Umuman salbiy munosabat bildirmadim. Agar salbiy munosabat bildirsam, bezovtalanadigandek edi go'yo.

– Davom eting, to'xtamang. Nechta farzand edinglar? Oilangiz, uyingiz qanday edi? Nima haqida aytib bersangiz ham, eshitaman.

– Beshta, lekin ikkitasi o'gay edi, ya'ni boshqa onadan edi.

– Qanday qilib?

– Otam onamning ustiga kundosh olgandi, psixolog.

– Ya'ni, uyda ikki ayol bor edi, to'g'rimi?

– Ha. Ikkita ayol, besh farzand va bir "ota" deb ataluvchi inson. Yo'q-yo'q, hayvon! Ammo, ikkita ayol borligi

uchun uyda nizo chiqmasdi, psixolog. Shunday!.. Uzoq vaqtdan beri bir odamdan kaltak yegan ikki ayol bir-biri bilan do'st bo'lgandi. G'alati bir do'stlik! Nega do'stlik deganimni ham aytib o'tay. Eringni qizg'onish o'rni-ga, u bilan yanada ozroq birga bo'lib, undan yanada kam-roq kaltak yeganing uchun boshqa ayolga rahmat ayta-san. Shunday bir do'stlik edi!

– Shu do'stlikmi, Hasrat xonim?! – O'vozim o'zgardi.

– G'alati bir do'stlik, dedim-ku axir, psixolog. Yasha-masang, bilmaysan. Ayblamasdan eshitsang, davom etay. O'sha paytlardagi boshimdan kechirganlarimni o'qib o'r-gana olmaysan, psixolog. Ba'zilar uchun bu holat ahmo-qona tuyiladi. Ikki ayol bir erkakni qanday qabul qilishi mumkin, deydilar. Ustiga-ustak har kuni kaltak yegan, deydilar. Ammo bunday hayot tarzi ham mavjud, mavjud! Tayoqdan hamma bir xilda nasibasini olardi u uyda. Rez-ina shlanka bilan kaltaklanasanmi yoki temir tayoq bilan-mi? Qo'liga tushgan narsasi bilan kaltaklardi u hayvon!

– Haqlisiz, savollarimga e'tiborli bo'laman. Onangiz nima qilardi?

– Tomosha qilardi bechoraginam, nima ham qilardi? Yordam bersa, yanada ko'proq kaltak yeyishini bilar edi. Ko'pincha yordam berardi ham, men yoki ukalarim o'rniga u yerdi kaltakni.

Hasrat xonim bu gaplarni aytayotganda, ko'zimning orti rostdan ham biroz qizarganini his qildim. Tushunishga harakat qil, tushunishga.

– Otam hech qachon ishlamagan dedingiz, rostdanmi? Ro'zg'orga kim qarardi?

– Esimni taniganimdan beri onam tikuvchilik qilgani ni eslayman. Qo'ni-qo'shniga, kim nima buyurtma bersa, shunga, psixolog. Keyin bir kuni otam onamni kaltaklayotganda onamning o'ng qo'li qiyshayganini ko'rdim. Kechqurun sovun surib, bint bilan qo'lini bog'lagandi. O'sha oqshom otam uyga kelmagandi. Onam qo'rqqanidan baqirib emas, panada ovozini chiqarmay yig'lagandi. Bola edik, psixolog, nimani ham tushunardik? Bilsak, ayolning bilagi qayrilibdi. Bir haftadan keyin og'riq shu darajada ortdiki, ovozini chiqarmay yig'lash o'rniga dod solib yig'ladi. Kasalxonaga olib bordilar, lekin juda kech edi. Bilagi shundayligicha qoldi onajonimning. Jonim onam, faqatgina uni sog'indim!

Ko'zlarimning ortidagi qizarish, ko'zga ko'rinib qolgan, shekilli, u:

– Rahming kelmasin, psixolog. Men bularni boshimdan o'tkazayotganimda hech kimning rahmi kelmadi. O'tib ketgandan keyin achinishning hech qanday foydasi yo'q, ishon menga. Bu bir ertak edi, bir qo'rqinchli tush edi, bir go'zal tush edi... Nima deb nomlasang nomla, o'tdi-ketdi!

Davom etay, psixolog. Mahallada hamma onamni Xadicha qiyshiq derdi. Xorinlarning gapiga jahlim chiqmasdi-yu, bolalar eshik oldidan o'tganlarida yoki oyimni yo'l-da ko'rganlarida mazax qilib, qichqirib o'tib ketishardi. Ana shunga chiday olmasdim. Nafratga to'lardim. Bir kuni qo'shni qizning qo'g'irchog'ining qo'lini xuddi onamnikidek qiyshiq qilib qo'ygandim. Bolalarcha soddalik bilan, sen ham shunday yashashni tatib ko'r, degandek. Lekin oxirida yana otamdan tayoq yegandim. Chuqur nafas oldi u.

– Sigareting bormi, psixolog?

– Sigaret chekmayman.

– Ajab qilasan, – deb kulimsiradi va davom etdi. – Tayoq yeyishni qabul qilasan, psixolog. Ya'ni, bir muddat so'ngra o'rganib qolasan. Hayotingni bir bo'lagi bo'lib qoladi, lekin sababini so'rashdan ham o'zingni to'xtata olmaysan. Bir kuni yana tayoq yeyayotganimda, qo'llarim bilan yuzimni yopib, ovozimni boricha baqirdim otamga: "Meni nega kaltaklayapsan? Nega doim kaltaklaysan?"

– Nima deb javob berdi?

– Nima ham derdi? Aslida, seni juda yaxshi ko'raman, dedi menga. Javobni qara, psixolog. O'sha kundan keyin nima bo'ldi, bilasanmi? Balki meni kaltaklashidan ko'ra shu gapi menga ko'proq zarar bergandir! Ongim sevgini tayoq deb bildi. Sevgan insonlarimga zarar berganimda ularga sevgimni namoyish etyapman deb yoki kaltaklaydigan bir erkak meni sevadi deb o'ylardim. Inson tayoq yegani sari sevib qolishi mumkinmi? Men sevdim!

– Tinglayapman! – dedim, xolos.

Qaradi va kulimsiradi.

– O'rningda bo'lganimda men ham tinglagan bo'lar-dim. Aytgancha, sevgi deganday, bizning zamonimizda tur-mush qurishga ham o'zing qaror qilolmasding. Kel, bizning zamonimizda demay-da, o'sha hayvon otamning zamonida dey. Turmush shunday qurilardi: otaga pul kerak, qizga esa balog'atga yetgani uchun er. Qizimni beraylik-da, pulim-ni olaylik. O'n sakkiz yoshga to'lgan kunim shunday qaro-rga keldilar. Mendan o'n yosh kattasini topib, meni unga berdilar. Kelin ko'ylak kiydi deb xayol qilma, psixolog.

Otam aqlli odam: kichkintoy qizalog'ini o'z uyidan kelin ko'ylak bilan chiqararmidi? O'n sakkiz yoshga to'lgan kunim kechasi keldilar. Meni oldilar va ketdilar.

– Keyin-chi?

– Keyinmi? Keyin hayotim yanada sevgiga to'ldi. Otamning tayog'ini sog'inadigan darajada ko'p kaltak yedim, lekin u meni ko'proq yaxshi ko'rardi. Ya'ni, men shunday deb o'ylardim, psixolog. Natijada, kaltak yeyish sevilish demak edi. Har kuni haddan ortiq rashk qilgan erkak, har kuni kichkinagina bo'yi bilan kaltak yegan men. Quyosh nurini ko'rish uchun pardani ochish ham taqiq-langandi. Nima bo'lsa bo'lar, deb ochardim. Aytgandim-ku, tayoq yeyishga o'rganib qoldim deb. Uni ochsam ham, tayoq yerdim, ochmasam ham. Ya'ni farqi yo'q edi.

– Bu holat qancha davom etdi?

– Bir yil uzluksiz tayoq yedim. Bundan keyingisiga tayyormisan, psixolog? Men tayyor emasdim. Men johil edim. Men juda yosh edim. Egasiz edim, psixolog. Bir Alloh bor edi, bir men. Onamning menga o'rgatgan eng go'zal narsasi: “Yig'laganingda Alloh bilan gaplash. U seni eshitadi, seni himoya qiladi, senga yordam beradi”, derdi. Har bir dardimni ALLOHga aytardim. Har oqshom har yig'laganimni tinglardi U. Hamisha kutdim qutulishni, lekin bo'lmadi. Sinov-ku bu, sinaldim har daqiqa, har kuni. Davom etyapman, psixolog. Sigareting bormi?

– Yo'q, chekmayman degandim-ku.

– Ha-ya, uzr, bir zumda unutibman. Nimasini aytay psixolog, tomog'ingni o'rtasiga bir narsa tiqilib qolganda nafas ololmay, hushingdan ketgudek bo'lib, nafassiz qola-

san-ku, xuddi shunday bo'ldi. Erim meni kaltaklayotganda tishim sindi, tomog'imga ketib qoldi va nafassiz qolib, hushimdan ketdim. Hushimdan ketganim muammo emas-ku-ya, u ahmoq meni o'ldirib qo'ydim deb o'ylabdi. Nima qildi, bilasanmi? Ustimga katta choyshab tashladi. Uyning o'rtasiga qo'ydi va uyni yoqdi! Bir payt hushimga kelsam, ustimda choyshab. Choyshabni otishim bilan olovni his qildim, psixolog. Hamma joy olovga burkangandi. Panjara-ning bir chetida ochiq qolgan joy bor ekan. U yerdan o'zimni otdim-da, tashqariga qaragan orqa tomondagi bog' tomonga yugurib, to'g'ri otamning uyiga qarab chopdim. Odamni ko'ryapsanmi, psixolog! O'ldir, yoq! Bu qanday dunyo deb o'ylab qolasan o'sha damda. Militsiyaga nega murojaat qilmading deyayotgandirsan. Qanaqa militsiya, psixolog? U vaqtda bunday ish qiladigan na aqlim bor edi, na jasoratim. Kaltaklagan odam meni sevardi, axir. Sevaman degandi, shunday emasmi? Ammo, angladimki, bu odam meni sevmasdi. O'sha kuni o'zimga kelgandim go'yo. Yugurgancha ketdim ota uyimga. Bir yildan beri ketolmagan ota uyim, onam, ukalarim. Bir yildan beri ko'rmayotgandim, ovozlari- ni ham eshitmayotgandim. Lekin uyga shundoqqina kira olmasdim. Otamni uydan chiqishini kutishim kerak edi, bo'lmasa kaltaklardi. Yarim soat-qirq besh daqiqacha kutdim. Otam uydan chiqdi. Ishsiz odam natijada qachon chiqib qaytardi? Meni ko'rsa urardi. Johilman, psixolog. O'sha vaqtdagi ruhiyatim, fikrlarim ham sog'lom emas. Qachon sog'lom bo'lgan edi?! Xullas, otam chiqdi. Men eshikni taqillatdim. Eshikni o'gay ona deb ataluvchi ayol ochdi va dedi:

– Nima ishing bor bu yerda? Ering qayerda? Nega kelding?

– Onamni chaqir deb baqiribman, psixolog, biroq u javob berishni xohlamayotgandek edi.

– Otang ko'rib qoladi, yomon bo'ladi. Seni deb men ham kaltak yeyman. Eringni oldiga qayt, uyingga qayt! Qo'ni-qo'shni ko'rsa nima deydi, uyingga bor!,

– Qo'ni-qo'shnimi? – dedim,

– Qanaqa qo'ni-qo'shni, mening bolaligim o'ldi. Bu uydan har kuni seni, meni, onamni baqirishi eshitilardi, bir marotaba qo'shni chiqdimi?! Onamni chaqir, onamni.

– Onang yo'q, Hasrat. Ket bu yerdan. Uyingga qayt!

– Qaytolmayman, qaytolmayman. U odam meni o'ldirayotgandi, qochdim!

Chiday olmadim, gapini o'rtasidan bo'ldim va so'radim.

– Onangiz qayerda ekan?

– Onammi, psixolog? O'libdi. Birgina so'z, psixolog, birgina: O'libdi! Boshidan o'tkazmagan odam bu og'irlikni bilarmidi? O'sha kundan beri doim jigirimning bir parchasi og'riydi. Hatto o'lganiga olti oy o'tib ketibdi. Tasavvur qilgin-a, men onamning qabrini bilmayman, u yerda duo o'qimaganman. Dafn qilibdilar, meni olib bormabdilar. Hatto, otam yana bittasiga uylanibdi, psixolog! Menga ularni tushuntirgach, “Er-xotin o'rtasida bo'lib turadi bunday holatlar. Qayt uyingga”, dedi u. Erim meni mozorga olib borsa ham mayli edi. U ham nima qilsin, shunday deb bilgan dedim-ku, psixolog, sevgi – tayoq. Shumxabarni eshitganda erim meni mozorga olib borsa ham mayli edi! Lekin u qaytmasligimni tushundi: “Kutib tur”, dedi-da, ichkariga kirib ketdi. Meni o'n daqiqa kuttirdi. Onamning eski narsalarini olib keldi, berdi va eshikni yopdi!

– Siz nima qildingiz?

– Mahallaning orqasiga ketdim, psixolog. Qo'limda bir kichik sandiq, bir paket. Onamning narsalari bor-yo'g'i bir kichik sandiq, bir paket edi, psixolog. Sandiqni ochdim. Ichidan rasmlarimiz chiqdi, bint chiqdi. Qo'li singanini bilmaganida o'ragan binti bor-ku, o'sha bint. Ukalarimning va mening ilk marta kesilgan sochlarimiz alohida-alohida kichik yelim xaltachalarga joylangan va ustiga ismimiz yozilgandi. Yana akamning buzilgan o'yinchog'i bor edi. Akam u o'yinchoqni deb ko'p yig'lagandi. O'sha do'zaxdek uyda shunday xotiralar bor edi, psixolog. Bir muddat o'tgach, tayoq bilan to'yganing uchun yig'lashni ham unutib qo'yasan. Men onamning o'lgani uchun yig'lay olmadim, psixolog! O'sha sandiqning ichiga azob chekkan bolalarining bir parchasini sig'diribdi onam. Insoniyat juda g'alati. Har kuni qon qussa-da, hayotga bog'lanish uchun bir ilinj topadi. Onamning duosini doim eslayman. "Allohim, jonga qasd qilish bizga harom. Sen mening jonimni ol!"

Ko'zlarim yoshga to'lgandi. Uni so'zini bo'lgim kelmayotgandi. Boshqasi aytib bersa, balki yolg'ondek tuyilar, ammo u shunday so'zlab berayotgandiki, o'sha voqealarni shunday yashagandiki, haqiqatligi qalbimga xanjardek qadalayotgandi. U davom etdi.

– Bintni oldim. Hidladim, hidladim. Shu alfozda ichimni to'kdim, psixolog. U ko'z yoshlar shunday ediki, yomg'ir desang, seldek, dengiz desang, quyundek. O'sha mahallani, o'sha odamni, o'sha hayotni bo'g'adi-qo'yadi! Onamning o'lganini eshitganda emas, o'sha bintni hidlaganimda yig'ladim. O'sha ifor oldida ojiz qoldim, ichimni

to'kdim. Menga qolsa, uch kun to'xtamay yig'lardim, biroq ketishim kerak edi. Nima qilaman, qayerga boraman? Insonning boshida hech kim yo'q ekan, har oldidan chiqqan odam uni o'ldiradi, psixolog. Uyga qaytsam, erim, ota uyimga qaytsam, otam o'ldiradi. O'zimcha qaror qildim. Endi erimning uyiga ham, otamning uyiga ham qaytmayman!

– Aka-ukalaringiz-chi?

– Akam mavsumiy ishlarda ishlardi. Tog'rirog'i, otam majbur qilardi. Singlimni esa onam o'lishi bilan erga beribdilar. Otamga pul, singlimga er kerak bo'lib qolibdi. O'sha pul evaziga yangi ayol bilan turmush qurgan bo'lsa kerak!

Hayajon bilan qayg'u bir joyga to'lgandi. Tuyg'ularim meni o'ziga asir qilgandi. Qiziqmay turolmayotgandim.

– Keyin-chi?

– Qiziqyapsan, psixolog. O'ringda bo'lsam, men ham qiziqardim. Sen haqsan. Qancha inson shunday hayotda yashaydi? Ko'p inson, juda ko'p. Shunchaki ko'rmaymiz, eshitmaymiz. Sen hozir mening qari, xunuk ko'rinayotganimga qarama. Men yoshligimda juda chiroyli qiz edim. Kichkinagina, qosh-ko'zlari chiroyli. Bir marta qaragan, yana qarardi.

Bir onga to'xtadim va yuziga qarab yoshligini tasavvur qilishga harakat qildim, do'stim. Yuz chiziqlari keskin edi. Giyohvand modda qarami ekanligi, boshidan o'tkazganlari yuzidan kamida oltmish yoshdek ko'rinsa ham, dumaloq yuzi, ko'z rangining go'zalligi yoshligida chiroyli bo'lganligining isboti edi.

– Kuni bilan yurdim, yurdim, yurdim, yurdim. Yig'ladim, yana yurdim. Bintni hidladim va yurdim. Kech bo'ldi,

yana yurdim. Tun bo'ldi. Gavjum joylarda, yorug' joylarda yurdim. Qo'limda bir sandiq, bir yelim xalta bilan yurdim. Ayollar va erkaklar qo'l ushlab yurishgandi. Hamma joyda chiroqlar yonayotgan, atrofdan musiqa ovozi eshiti-layotgandi. Xandon otib kulishayotgandi, ishonasanmi? Men yig'layotgandim va yurayotgandim. Televizorimiz yo'q edi. Men bunaqa narsalarni birinchi marta ko'rayotgan-dim. Chiroyli kiyingan, yasan-tusan qilgan insonlar va shu kabilarni birinchi marta ko'rayotgandim. Bir burchak top-dim. Ochlikdan hushimdan ketay deb turgandim, shu bois u yerda o'tirib oldim. Eshikka o'xshash narsa bor edi yoni-da, burchakda stul turgandi. O'tirdim. So'rab-surishtirmay shunchaki o'tirdim.

Bu orada eshik taqilladi. Kir deyishim bilan ichkariga kirgan xodim ovqat vaqti bo'lganini aytdi. Soatga qara-dim, rostdan vaqt bo'lgandi. Bir yarim soat shu darajada tez o'tibdiki, yozib qo'ygan yagona narsam: "Himoyaga tayyor-lanyapti" jumlasini bo'ldi. Aslida hech ham turgim kelma-yotgandi, lekin Hasrat xonim ovqatlanib olishi kerak deb o'ylab, "Tushlik uchun biroz tanaffus qilamizmi?" dedim.

Menga qadagan nigohini aslo unuta olmayapman. Go'yo: "Yana kel!.. Aslo ketib qolma!.. Meni eshit!.." – deyayotgandek edi. Uning ta'biri bilan aytganda, sevgi ti-lanayotgandi!

– Xo'p, psixolog, – bilaklarini silab, qo'shib qo'ydi: Si-gareting bormi?

Kulib qo'ydim:

– Siz uchun topaman, va'da!

– Qani ko'ramiz, sendan kutayotganim aynan shu, – dedi.

Ko'zlari to'ldi. Yuzida soxta tabassum bor edi. U shu alfozda xonani tark etdi.

Xavfsizlik xodimi menga qaradi. "Men birozdan so'ng chiqaman", – dedim.

O'tirdim, o'tirgan joyimda qoldim, do'stim! Yondaf-tarchamni ochdim va ko'zimdagi yosh bilan "himoyaga tayyorlanyapti" jumlasini yangiladim.

Shu darajada yig'ladimki, tushuntirib berolmayman, do'stim. Mening dardim dardmi? O'ttiz ikki yoshimga qadar halovatsiz his qildim o'zimni. Ha, doim bir narsa kam edi. Ha, doim bir narsalarni qidirardim, biroq aslida, mukammal hayotim bor ekan. Insonlar nimalarni boshlaridan o'tkazmaydilar!

O'n besh-yigirma daqiqadan keyin xonadan chiqdim va xavfsizlik xodimidan oshxona qayerdaligini so'radim. Avval yuz-qo'limni yuvib oldim. O'zimga kelib, keyin oshxona tomon yurdim.



Dardingni arzimasdek
ko'rsatuvchi dardlar bor.
Shukur qil!
Umr so'nggida tuproq bor!







Xodimlar oshxonasida bir burchakdan joy topib o'tirdim. Hamma menga qarayotgandek his qilayotgandim o'zimni va xayolimning har zarrasi Hasrat xonimning aytib berganlarida edi.

To'g'rimda o'tirgan mudir yordamchisining ovozi ikkinchi marta eshitayotganimni payqab qoldim. G'alati nazar bilan qarayotgandi menga, kulimsirab qo'ydim. Tabldot¹ usulida tarqatilgan ovqatlarning ko'rinishi, ta'mi yoki ifori bilan umuman ishim yo'q edi. Diqqatni tortmaslik uchun qo'limga olgan sanchqim bilan yogurt qo'shilgan salatni biroz yengilgina aralashtirdim. Ko'z oldimda yuz ifodasini nazorat qilishga harakat qilganim bir ayol siymosi bor edi. Xayolimdan o'tkazayotganlarim endi fildek katta emasdi. Binolar qadar, koinot qadar buyuk edi. Hech kim bunday hayotda yashashga majbur emas deyotgandim ichimda. Bolalik jarohatlari bir umr davom etishini biladigan va bu bilan bog'liq batafsil yoza oladigan darajada o'qimishli edim, lekin hech bir yozuv yo'q edi qo'limda. Himoyasiz tinglagandim faqat.

O'ylab qolaman-da, do'stim, hamma o'z bolaligini o'z farzandlariga yashatayotgandek go'yo. Hayotda uzilishi

¹ Tabldot – bir necha ovqat solib yeyish mumkin bo'lgan idish.

lozim bo'lgan og'ir zo'ravonlik zanjiri bor. Ota-onalari-miz bizga nimaiki o'rgatsa, barchasini qabul qilamiz, necha yoshda bo'lsak bo'laylik, to'g'ridan to'g'ri qabul qilishda davom etamiz. Zo'ravonlikni sevgi bilan qorishtirgan ayol, o'limiga qadar kaltak yeyish bilan go'zal sevish orasidagi katta bo'shliqni kichik bir chiziq deb bilgan ayol. Himoya-siz qolgan tomonidan kirgandi insonlarning fikri. Nomus degan tushunchaga bog'lanib qolgan el-yurt, har qadaming-da kamchilik topsa ham, na tirigi bilan qiziqibdi, na o'ligi bilan! Boshqa insonlarning qayg'urgan yagona narsalari esa bu azobni qabul qilishi kerakligi emish. Vaholanki, butun insoniyat bir mahallada yashovchi qo'shnilardek bir-birlari bilan yaqin munosabatda. "Menga nima?" deb o'tib ketganlarimiz, bir kun kelib, bizni tashvishga soladigan darajada ayanchli ahvol bilan yuzma-yuz kelishimizga sabab bo'layotgandi. Ko'chadagi bolaning sovuq yegan oyoqlari haqida qayg'urmagan va shunchaki achinish bilan kifoyalanib, o'z holiga shukur qilgan bir inson, yillar o'tib xuddi shu bola tomonidan talon-toroj qilinishi mumkin. Ammo bir bolaning o'qishiga, rivojlanishiga va o'z hayotini qurishiga yordam bergan bir inson, shifokor bo'lib yetishgan o'sha bola tomonidan shifo topishi mumkin. Haqiqatan, hayot naqadar ajoyib!

Miyamni har xil fikrlar kemirayotgandi. Eng mayda tafsilotlarni ham o'ylayotgandim o'sha vaqtda va aytganimdek, do'stim, poyabzali yo'q insonga achinib, o'z holiga shukur qilib o'tib-ketish o'rniga unga yordam berishni o'ylab ko'rishing lozim. Yordam berishning ham qoidalari bor. Uyaltirmaslik, boshqa birovning ehtiyojini qondiryapman deb, o'zini kibrli tutmaslik kerak inson. Beruvchi qo'l sen

emassan, vositachisan, xolos. Alloh sening qo'ling bilan boshqasiga yordam berayotgan bo'lsa, sen bu uchun faqat duo qila olasan. Unutmaginki, do'stim, beruvchi ham oluvchi ham Allohdir.

Yordam berish oltinga sarmoya tikish kabi. Takroran qarshingga chiqqanida ancha vaqt o'tgan va yana qiy-matiroq bo'lgan bo'ladi.

Endi qo'limdagi sanchqi bilan ovqatni o'ynashda davom etardim. Seans (ruhiy muolaja) davomida Hasrat xonimning menga aytib bermoqchi bo'lgan hayoti haqida shu darajada qiziqayotgandimki. Ammo, ayni chog'da uning qarshisida chorasizman. Davolanishiga oid muolajalari haqida hech qanday fikrim yo'q edi. Tez-tez depressiyaga tushuvchi, halovatsizlik sindromi bilan kurashuvchi – men!

Naqadar erka bir inson edim. Hayot menga doim go'zal tomonlarini ko'rsatgan edi go'yo. Onamning go'zal iforini, otamning mehr to'la ko'zlar bilan qarashlarini esladim. Ruhiy holatimni, to'lgindek tushib-chiquvchi holatlar sabab davomiy qirg'oqqa urilishimni esladim. Qiyin kechgan o'smirlik davrimni va bu davr bilan kurashishga majbur bo'lgan ota-onamni esladim. Ichimdagi bo'shliqni to'ldirish uchun olgan o'sha qimmatbaho zavqlar, qimmatbaho o'yinchoqlar, qimmatbaho hayot tarzimni esladim. Oh, otam va onam, moddiy jihatdan juda yaxshi bo'lsalar ham, ko'ngillari hammasidan ko'ra boyroq edi!

Aqlimdagi o'y-fiklarga bog'langan holda yashashga ko'nikib qoldim, do'stim. Yozayotganlarim orqali senga ham ta'sir o'tkazayotganimni bilaman, bir tog'dan bir bog'dan kelyapti gaplarim, chunki men shunday insonman. Aralash, u yerdan bu yerga sakragan! Shuning uchun

ruhiy holatimni aynan aks ettiryapman, jahling chiqmasin.

Stolga otilgan metall tabldotning ovozi bilan o'zimga keldim. Shifokor Naziha xonim go'yoki nima o'ylayotganimni bilgandek kibr bilan stulga o'tirdi.

– Qanday bo'ldi?

– Ilk uchrashuv uchun muvaffaqiyatli.

– Ovqatingga qo'lingni ham tekkizmabsan, psixolog. Ha, muvaffaqiyatli o'tgani ma'lum.

– Yo'q-yo'q, och emasman. Uchrashuvga aloqasi yo'q.

Ovozimni pastlatdim va Naziha xonimning ko'zlariga qarab so'radim: "Sigaret chekasizmi?"

– Bo'limdagi stolimda bo'lishi kerak.

– Menga bir dona bera olasizmi, iltimos?

– Albatta, bermalol, psixolog. Stolimda turibdi, o'sha yerdan olishing mumkin.

Hasrat xonimga bergan va'damning ustidan chiqayotganim uchun hayajonlanayotgan bo'lsam ham, undan ham muhimi menga aytib beradiganlari edi. Stol ustida turgan qutini olish uchun ovqatimni qoldirdim. Bo'limga tomon tez-tez qadam tashlab borib, sigaret qutisidan ikki dona sigaret va gugurt olib seansga kirdim.

Sigaret sog'liq uchun zararli!





– E, qoyil-e! Rahmat, psixolog. Sigaretni olib kelasan deb o'ylamagandim. Demak, senga ishonsam bo'ladi.

– Arzimaydi, lekin o'z qo'llarim bilan sizga zararli narsa olib keldim.

– Psixolog, men sigaret chekmayman o'zi. Va'dangning ustidan chiqish-chiqmasligingni tekshirdim. Sigaret chekish uchun menda pul nima qilsin?"

Hayratda qoldim. U meni tom ma'noda sinovdan o'tkazibdi! Kulimsiradim va: "Juda yaxshi, ishona olishingizni tushunib yetgandirsiz", dedim.

– Muammo yo'q, psixolog. Sinovdan o'tding!

– Rahmat. Unday bo'lsa, davom etamiz.

– Albatta. O'sha oqshom butun hayotim o'zgardi va meni bunga qarshi biron nima deyishga haqqim yo'q edi. Xuddi shu joyga kelgandik.

– Ha.

– O'sha oqshom o'tirgan joyim bor edi-ku, aytgandim. Yon tomonidan bir eshik ochildi va u bilan tanishdim.

– Kim bilan?

– Firat. O'sha joyda, o'tirgan joyimda ishlaydigan ofit-siant ekan. Shu darajada chiroyli tabassum qildiki, tasvirlab berolmayman.

– Siz nima qildingiz?

– Nima ham qilardim, psixolog? Og'zimning naqd o'rtasidagi tishimdan uyalganimdan o'layozdim. Bundan tashqari, shuncha dardim bor ekan, nima qilishim mumkin edi? Kula olmadim, hatto. "Qorning ochmi?" deb so'radi mendan. Yarim kechasi tilanchidek o'tirganimni ko'rib nima ham so'rar edi? To'g'ri, men, zotan, tilanchi edim. Esingdan chiqdimi, men sevgi so'rardim.

– Unaqa deyavermang, iltimos.

– Lekin shunaqa, Allohning bilganini bandasidan berkitamanmi?! Ammo., – dedi va to'xtab qoldi. Go'yo qisqa muddatga xotiralariga ko'milgandi Hasrat. Yuzida nim tabassum bor edi, lekin juda qisqa davom etgan tabassum edi bu! – E'tibor berma. Keyin shu yerdaman, xullas!

– Qo'ysangiz-chi, juda tez o'tib ketdingiz. Men yozib ham olmayapman. 18 yosh va bu yer, qabul qilinmaydi.

– Firat sababli bu yerdaman chunki!

– Qanday qilib?

– Darrov aytsam, qo'rqib ketishing mumkin, lekin, mayli, ayta. Uni o'ldirganim uchun bu yerdaman.

Tom ma'noda muzlab qoldim uning qarshisida. Hujjatlarini batafsil ko'rib chiqishim kerakdir balki.

– Tushunmadim, – deb javob berdim.

– Tushunarsiz narsaning o'zi yo'q. Meni giyohvand moddaga o'rgatgan ham u!

– Batafsil aytib bera olasizmi, iltimos, noqulay bo'lmasa agar? Eshitishni xohlayman.

– Noqulayligi yo'q, xavotir olma. Mahalla orasida bir sotuvchi paydo bo'ldi.

– Ofitsiant edi, endi giyohvand modda sotuvchisi.

– Hammasi bir joyda, psixolog. Bu mavzularda rostdan ham tajribasizsan.

– Haqlisiz.

– Paketlarni, ya'ni uning sotgan giyohvand moddalarini qo'shimcha ish deb bil. Barga kelgan xaridorlarga sotar va ularning soyasida xaridorlarini ko'paytirardi. Ochiq yuzli, uzun bo'yli va hech kimda shubha uyg'otmaydigan darajada yaxshidek ko'ringan Firat! Firat mendan olti yosh katta edi, lekin ko'rsang, yoshimiz teng deb o'ylarding. O'sha yerda tanishdik. Menga yaxshi munosabatda bo'ldi va uyidan joy berdi. Bir necha hafta aslo uydan chiqmadim, Firat meni mehmon qildi. Ishlayotgan barining orqa ko'chasida, pastki qavatdagi bir uy o'zi. Bir xona. Yerto'lada bo'lgani uchun ham xona zax edi. Hatto namoz o'qilmasdi, psixolog. Xo'sh, namozxona bo'lgan uyda yashaganim nima qilib berdi, shunday emasmi? Pardani ham ocha olmasdim. Bundan tashqari, ortiq tayoq yemayotgandim. Ertalab ko'kargan joylarimning og'rig'i bilan uyg'onish men uchun shu darajada zebolik ediki, tasvirlab berolmayman. Firat meni sevardi. Sevishga sevardiku-ya, sevgi o'zi nima? Zarar berish, psixolog. U ham har sevgan inson kabi zarar berardi. Tayoq o'rniga boshqa bir zarar, lekin oxir-oqibatda baribir zarar.

Ba'zi narsalar yozish uchun yondaftarchamni chiqarganimda, "Yozma", dedi menga. Past va ma'sum bir ovoz bilan: "Senga ishonyapman, qalbmni ochyapman".

Yozma deganidayoq daftarni qaytib sumkamga soldim va uzr so'radim: – Noto'g'ri tushunishingizni bilgandim, lekin yozib qo'ygim keldi. Harakat qildim, bo'lmadi.

– Oldinlari mavludlarda, unashtiruvlarda, masjiddan chiqishda qog'oz paketchalarda qand tarqatilardi. Bilar-miding, psixolog?

– Yo'q.

– Yoshing u zamonlarga to'g'ri kelmaydi, to'g'ri. Firat har oqshom uyga kelganida cho'ntagidan shunday paket-chalar chiqarar, hojatxonadagi tokchani ichida saqlardi. Bir oydan beri birga yashayotganimiz uchun er-xotin-dek bo'lib ketgandik. Kechqurun stol tayyorlab, uni kutardim. Oddiy kunlardan biri edi. Yana stol tayyorlagan holda kutayotganimda uyga bostirib kirdi. Yuzimga ham qaramadi. To'g'ri borib, stoldagi taomlarni yerga uloqtirib, cho'ntagidan bir paketcha chiqardi. Paketchadan oq bir narsa to'kdi stolga. Oyoq-qo'li titrayotgandi. Yuzi qip-qizil va ko'zlari qinidan chiqqudek jiddiy qarayotgan Firatni birinchi marta bu holda ko'rayotgandim. Qabul qilgandan keyin o'ziga keldi. Shunday o'ziga keldiki, menga tabassum qilganini eslayman.

– Xo'sh, siz nima qildingiz?

– Oyoq-qo'lim qotib qoldi. Bir necha soat yerda yotgan va uxlayotgan Firatni tomosha qildim. O'rnidan turganida hech nimani tushuntirmasdan, menga nisbatan his qilgan mukammal tuyg'usini izhor qildi. Oddiy bir narsa emas edi bu zahar. Qabul qilganingda hayot jannatga aylanadi, deb aytib berdi menga. Bir xonada u bilan birga yashaganimiz o'sha bir oy menga jannatdek tuyilgandi, psixolog. Do'zaxdek uyda katta bo'lgan insonga ham jannat haqida gapiriladimi? U shu tariqa meni qiziqtirib qo'ydi.

– Ya'ni, birinchi marta o'sha kuni qabul qildingiz.

– Ha, birinchi marta o'sha kuni kechasi qabul qildim. Jannat deb atagani bu zahar do'zaxning o'zginasi edi. Uch oy o'tar-o'tmas, unga qaram bo'ldim-qoldim. Meni sevgan o'sha inson ham g'oyatda o'zgardi. Haqiqiy yuzini ko'rsatdi. Uyga ko'chadan mushuk olib kelganimda: "Sut berolmayman. Menga ortiqcha xarajat yuklama", degan odam, bir ayolni tekinga uyida boqarmidi? Nimaniyam orzu qilardim? Ustiga-ustak endi itdek bog'langandim o'sha zaharga va ozuqam Firatning qo'lida edi. Sotishga chiqasan, dedi. Boshida tor ko'chalarda kichik-kichik savdo qildirdi. Do'stlariga sovg'a qilib yuborgandek jo'natardi meni. Men ham hech kimning yuziga qaramasdan paketchalarni berib, pulini olayotgandim.

– Keyin?

– Yuzaki aytib o'tyapman, psixolog. Keyin meni katta-katta ishlarga jo'natishni xohladi. Men ovozimni ham chiqara olmadim. Ish shaharlararoga o'zgardi. Agar qo'lga tushsam, qamoqqa tushishimni bilardim, ammo muammo qamoqqa tushishda emas edi. Men qo'lga tushsam, o'sha mollarning qo'lga tushgani uchun Firat umrbo'yi qarzini to'lay olmasdi. Fikrlashni qara, o'zingdan ham ortiq tushunasani yoningdagini. Insonning qilgan eng katta xatosidir balki, yonidagini o'zidan ham ortiq tushunish! Uyga olib kelgan paketchalarini filmlardagidek oshqozonimga joylashtirardik, psixolog. Ular bilan o'n yetti soat yo'l yurganimni eslayman. Bir dona paket yorilsa, o'lishimga ishonchim komil edi, lekin bu shunday bir zahar ediki, o'limga ham tayyor turasan. Bu voqealarga o'ttiz-o'ttiz besh yil

bo'ldi, psixolog. Qay darajada bilimsiz, qay darajada ahmoq edim. O'sha paketlarni qayt qilib chiqarar ekanman, bu holatning takrorlanmasligini har safar o'zimga va'da berardim. Ammo bu la'nati zahardan osongina qutula olmaysan-da. Og'risa ham, jigarim yorilgudek bo'lsa ham, har qusishda nafasim bo'g'zimga tiqilsa ham, xohlayotgandim, to'xtay olmayotgandim. Xumorlar mening o'zligimni yo'q qilayotgandi. Hali ham yo'q qilyapti, psixolog. Lekin yaxshiman. Oxirgi bir yildan beri yaxshiman.

– Yaxshi bo'lib qolganingizdan astoydil xursandman.

Barmoqlari bilan bir nimalarni hisoblashni boshladi va boshini o'ng-chapga xohlamaygina burgandan keyin muzlatuvchi bir qarash bilan menga qaradi-da:

– Yetti. Ha, psixolog, ha, yetti oydan keyin homiladorligimni bildim. Ya'ni yetti oylik homilador ekanman.

– Homiladooorrr?

– Firat ham bu darajada hayron qolmagandi. Hattoki, bolani oldirib tashla ham demadi. Mendek bir qaramning, hatto, mendek bir bechoraning bolasi o'z holicha o'lardi. Shunday degandi.

– Homiladorligingizni bilganingizda nimalarni his qildingiz? Ya'ni qomatingizning o'zgarganidan hech narsani tushunmadingizmi?

– Eh, psixolog, qanaqa his? His qolganmidi? Oshqozonimda birinchi marta nimadir olib yurganmidim? Boshimdan o'tkazganim paketlar kabi keraksiz bir holat edi. Onalik nimaligini bilmas edim ham. Homiladorlik davrimda ham giyohvand modda qabul qilardim. U la'natini deyarli har kuni qabul qilardim. Aslida muammom

umuman bola emas edi, o'sha vaqtlardagi mening dardim sotishi edi!

– Qanday qilib u yerdan bu yerga o'tyapmiz? Bu qanday vaziyat?... Rostdan ham tushunishga qiyinalyapman.

– Bu shunday, xullas. Shundayki, o'zimdan voz kech-ganim bir lahza bor edi. O'sha lahzani aslo unutmayman. Uyga kimdirlarning kelib, men uchun savdolashganini eslayman. Men o'zligimni yo'qotgan vaqtlarimda menga egalik qilganlarini o'ylaganim uchun hammomda ikki soat o'zimni tirnadim. Aslo unutmayman. Hamma joyim qon bo'lgandi, balki tozalanaman deb! Vujudim tozalandi, lekin ruhimdagi yara deymi, iz deymi, aslo ketmadi, o'chmadi.

– Go'yo buning oxiri yomon tugaydigandek. Hali ham eski kunlaringizda yashayotgandek aytib beryapsiz.

– Ha, hali ham ruhimda yara bor. Qachon cho'milsam, toza bo'laman deb o'zimni haddan ortiq tirnayman. Zotan, o'sha kuni ertalab bo'lar ish bo'ldi!

– Nima bo'ldi?

– Ertalab uydan chiqdim. Hamma joyim og'riyotgan-di. Qanday yara qilgan bo'lsalar ham, rostdan vujudimning hamma joyi timdalangan holda edim. Yetkazib berishim kerak bo'lgan bir joy bor edi. Bordim, topshirdim. Ikki-uch soatdan keyin uyga qaytdim. Yana bir joyga yetkazib be-rishim kerak edi, lekin eshikni jiringlatganimda eshikni uyning yangi egasi ochdi.

– Uydan haydashibdimi sizlarni?

– Eh, psixolog, soddasan-da. Yo'q, Firat yangisini olib kelgandi. Ya'ni, onamni boshiga tushgani mening ham boshimga tushgandi. Kundosh kelgandi menga, kundosh!

– Siz nima qildingiz?

– Men nima qildim? Ichkariga yeldek kirdim. Terlay boshlagandim. Zotan, qornim ham o'zining borligini namoyon qilayotgandi. Hoziroq ketadi deb Firatga baqirdim-chaqirdim. Haligi ayol, yuzimga qaragancha, sen kelasan deyayotgandek edi. Men esa yig'lab, baqirib hayqirayotgandim ketadi deb. Natijada, Firat meni olib, tashqariga uloqtirdi. Qornimdagi bolasi bilan birga eshik tashqarisiga uloqtirdi meni.

Ko'zlarini shiftga qadadi, do'stim. Shu darajada bir uh tortdiki, keyinroq gapirishda davom etdi.

– Bilasanmi, psixolog, bir marta qorong'ilik tomon qadam tashlaganida qalbing yorug'lik nurini his qila olmaydigan darajada qorayishi mumkin. Xullas, davom etay...

Titrashni boshlagandim, psixolog, titrashni. Qornimda og'riq boshlandi, bir tomondan esa o'sha paytda bolamni tushirib qo'ydim deb o'yladim. Eshikni shunday timdaladimki, ishon, hozir borib ham qarasang, eshikda tirnoq izlarini ko'rasan! Mening ana shu eshik oldida qiynalishim bilan Firatning umuman ishi yo'q edi. Ichkaridan quvonch ovozlari kelayotgandi. Hech qayerga keta olmasligimni shu darajada yaxshi bilardiki, oxiri eshikni ochdi. Futbolka kiyib olgan ekan. "Kir, it, – dedi, – Kir!" Ichkariga kirar-kirmas hojatxonaga yugurib borib trubani ochdim. Paketchalar o'sha yerda bo'lishi kerak edi, lekin ochganimda ichida bir dona ham yo'q edi! Orqamdan hojatxonaning eshigini qulflanganini eshitganimda allaqachon kech bo'lgandi. Baqir-chaqirlarning foydasi bo'lmadi. U yerda, o'sha hojatxonada bir-ikki soat qulflanib qoldim, menimcha. Xumor sababli kafellarga singdirganim tirnoq-

larimdan sizib chiqqan qon hidi hali ham burnimda! Bilasanmi, psixolog, ko'zlarim baribir qorong'ilikka ko'nika olmadi. Doimo yorug'lik xohlardim. Hali-hanuz xohlayman, ammo yanglish hayotda yashayotgan bo'lsang, yorug'lik qiyin-da. Mayli, nima bo'lgan taqdirda ham, u yerda necha soat qolib ketganimni bilmayman, lekin o'layotgandek edim go'yo. Qanday tushuntirsam ekan senga, yuragim og'zimga kelgandek edi. Bo'g'zimda urayotgan bir yurak bor edi go'yo. Hushimdan ketgan ekanman. O'zimga kelganimda hojatxonaning eshigi ochiq edi.





– Biroz dam olishni xohlaysizmi?

– Meni eshitadigan inson topdim. Yozib olmagan, insoniy munosabatda bo'lgan... Garchi psixologlarga ishonch bo'lmasa-da, senga ishondim. Davom etgim kelyapti. Agar sen siqilgan bo'lsang, dam olishing mumkin.

– Yo'q-yo'q, men sizni o'ylab aytdim.

– Eng muhim joyida uzib qo'yding, psixolog, eshit.

– Xo'p, xo'p, uzr so'rayman.

– Eshikdan chiqdim. Zotan, tizzamda bazo'r turyapman. Hali ham ko'zlarim giyohvand modda qidirayotgandi va xumordan o'zimni yo'qotib qo'ygandim. Go'yo bir oyog'im ishlamayotgandi, yuragim hali ham bo'g'zimda urayotgandi. Qornimda bola. Aytgandim-ku, bir xonalik deb, eshik ochar-ochmas, xonaga kirasan. Mening qon bilan tanishuvim yoshlik paytimda bo'lgandi, lekin hamisha o'zimning, onamning qonini ko'rgan inson sifatida. Yerda, to'g'rirog'i, hamma joyda qon bor edi. Va Firat qonlar ichida yotgandi, lekin muhimi u ham emasdi, bilasanmi? Na qornimdagi bola, na Firatning qonlar ichida yotishi, na men, na dunyo, na koinot, na boshqa narsa. O'sha giyohvand moddani topguncha hamma joyni ostin-ustun qilganimni eslayman. Qabul qilganimni eslayman. Keyin esa hushimdan ketgan ekanman.

– Keyin nima bo'ldi, o'zingizga kelganingizda?

– O'zimga kelganimda, uyg'onganimda nima sodir bo'ldi?.. Ko'zimni ochsam, kasalxonadaman. Boshimda militsiya xodimlari, qo'limda igna, lekin bilaklarimda kishanlar. Endi Firatning o'limi uchun men mas'ul edim. Uydagi ayolni aytib berdim, lekin u ayolga doir hech qanday dalil, hech qanday iz topilmadi. U ayolni o'zim to'qib chiqardim deb o'ylashdi. Kaltakdan orqasi ko'kargan, tirnoqlarida izlar bor, uyning har joyida tirnoq izlarim, barmoq izlarim. Mendan loyiqroq bir qotil bo'lishi mumkinmidi?

– Lekin siz Firatni o'ldirganim uchun bu yerdaman demaganmidingiz? Ya'ni Firatni siz o'ldirmadingiz, to'g'rimi?

– Eh, psixolog, buni senga men o'rgatamanmi? Giyohvand modda qabul qilgan insonning gapiga ishonib bo'larmidi? Men senga o'ldirmadim desam ishonasanmi? Ichkaridagilarning qaysi biridan so'rasang ham, u qilma-gan, har biri aybsiz, har biri ma'sum. Men ham mas'um edim, shuning uchun ham jinoyatni bo'yninga oldim.

– Faqat shu sabab bo'lib bo'yningizga oldingizmi? Tushuna olmayapman!

– Ha, shu sabab. Ortiq yashashni ham xohlamaganim uchun. O'sha vaqtda sog'lom fikrlay olmaysan ham, men uchun eng yaxshi tanlov qamoqqa kirish edi, menimcha, shunday bo'ldi ham. Bordi-yu, inkor qilgan taqdirimda ham hech narsa o'zgarmasdi!

Buni aytar ekan, bir onda g'alati munosabat bildirdi. Qo'llari bilan stolni qattiq urdi. Munosabat bildirayotgandi. Qo'lini burniga olib bormasdan ham turolmayotgandi.

Go'yo xotiralar uni giyohvand modda qabul qilishga majbur qilayotgandek...

Ruhiy holatini o'zgartirishi uchun darrov gapini bo'ldim.

– Biroq qamoqxonada ham tinch o'tirmagan ekansiz. Bir qancha jinoyat qilibsiz, bir qancha jazo olibsiz.

– Qamoqxonadan chiqqim kelmayapti-da, qancha jinoyat qilsam, shuncha jazo olaman.

– Bu yerda ko'proq qolish uchun jinoyat qilyapman demoqchimisiz?

– Aslida, chiqmaslik uchun emas, o'lish uchun desak, to'g'riroq bo'ladi. Maqsadim shunday, lekin bo'lmayapti. Hech qayerda qolgim kelmayapti. Men onamdek bo'lolmadim, ojizlik qildim. Aslida men doim ojizlik qildim. O'z joniga qasd qila olmaydigan darajada qo'rqqoq edim. Shu bois hammaning jig'iga tegyapman, balki birontasi o'ldirar deb. Natijada, o'sha harom hisoblangan joniga qasd qilishni bir necha marotaba sinab ko'rsam ham, onamning duosi, faryodi doim yodimda. Mening o'rnimga boshqalar qilsin shu ishni deb harakat qilayotgandim.

– Sizni ojiz his qildirgan narsa bu bo'lishi mumkin emas. Tan ololadigan darajada kuchlisiz menimcha, tan oling.

– Tan olay. Ko'zim yorishi bilan boshlanadi bu hikoyam va bu shunday bir hikoyaki, yanglish hayot ichida tug'ilganingda nima bo'lsa ham to'g'ri yashay olmayсан, psixolog. Balki, o'z tanlovim bo'lganida biror imkon topilishi mumkin edi, lekin hech qachon o'zimning tanlovim bo'lmagan. Qo'linga qara, – deb qo'lini ochdi va menga arab yozuvida yozilgan bir tatu (badanga chizilgan surat)ni ko'rsatdi.

– Nima deb yozilgan bu yerda?

– Yanglish hayot to'g'ri yashalmaydi. Qamoqqa kirganimda bir mahkum do'stim chizgandi.

– Hayotni to'g'ri yashamaslik uchun qo'limdan kelgani qildim va uni qo'limga muhrladim demoqchisiz.

– Xuddi shunday deyapman, psixolog. Homiladorlik davrimga o'tamizmi, nima deysan?

– O'tamiz. Xohishingiz, men qayd qilmayapman ham, bilasiz.

– Qamoqxonaga kelganimda tug'ruqqa oz qolgandi. Ikkinchi oyga o'tdim yoki o'tmadim, aniq eslolmayman. Tug'ruq to'lg'oqlari boshlangach, baraka topgur, mudirning imzosi bilan bir kasalxonaga jo'natildim. Aslida, mudir ham o'zini xavfga qo'yishni xohlamagandi. Giyohvand moddaga qaram bo'lgan ayol qanday farzand dunyoga keltiradi, hech kim bilmasdi, lekin o'zini xavfga qo'yishga arzigulik bir jon emasdi u. Muhimi jon edi, jon. Ammo men shu darajada ojiz edimki. Hali ham ojizman. U vaqtlar ustiga-ustak juda aqlsiz ham edim. Bir chaqaloqning onasi qaram bo'lsa, chaqaloqning ham qaram bo'lib tug'ilish ehtimoli yuqori ekan va shuning uchun men o'zimni hech qachon kechirmadim. Aslo kechirmayman ham. Men hayotimdagi eng katta yomonlikni na Firatga, na otamga, na onamga, na o'zimga qildim. Men u yomonlikni o'z farzandimga qildim. Baland dozani o'g'limga yubordim! O'g'lim giyohvand modda qarami bo'lib dunyoga keldi, psixolog. Hayratda qoldim!

– Bolanggizga nima bo'ldi? Ya'ni tug'ilganidan keyin nima bo'ldi?

– Nima ham bo'lardi? O'lgan bo'lsa kerak-da. Bilmayman. Olib qo'ydilar mendan. Qara, tortib oldilar, jonim-

dan bir parchani yulib oldilar demayapman. Ko'zlarini ochmasidan avval eng katta yomonlikni onasidan ko'rgan bir bola. Nima ham qilardilar bunday chaqaloqni? Tug'ilgan paytini eslayman, boshimni burganimda hamshiraning quchog'idagi ko'kargan badanini. Kim biladi, mendan keyin nimalarni boshidan o'tkazdi? Yashadimi-yo'qmi, uni ham bilmayman. Shu onda hayotdami, qiziq? Tirik bo'lsa, hayoti qanday kechdi bilmayman? Ismini ham qo'ygandim, bilasanmi, psixolog? Bilagiga bog'langan havorang tasmada men aytgan ism yozilgandi: UMID. Bir taqdir qurboniga qo'yiladigan eng chiroyli ism, shunday emasmi?

– Chiroyli ism ekan, albatta.

– Eng ulkan dardlarni boshidan o'tkazgan insonlar farzandlariga buyuk va'dalar beruvchi ismlar qo'yarkan. Masalan, onam mening ismimni Hasrat qo'ygan, o'zi hasratda qolgan hech narsaga mening hasratda qolmasligimni xohlagan ekan. Men ham u go'dakni UMID dedim, balki bir joylarda UMID bilan ko'zlarini ochar deb. Ammo, muammo shundaki, psixolog, onam meni hasratda qolmasin degan ekan, men hamma narsada hasratda qoldim. Hammasida hasratda qoldim, hatto chaqaloqdan ham hasratda qoldim. O'z jonim, o'z o'g'lim bo'lgan UMIDdan!

– Bolangiz bilan bog'liq bironta xabar olmadingizmi?

– Aytdim-ku, olib qo'ydilar mendan. Davlat himoyasiga olindi. Tuzaldimi, tuzalgan bo'lsa, yana giyohvand moddani boshladimi? O'ldimi? Yoki bir ko'prikning ostida hushsiz yotibdimi? Yoki bir ayolga dunyoni tor qildimi? Aslo bilmayman.

– Uni qidirish haqida o'ylab ko'rmadingizmi?

– Qidirish? Qaysi yuz bilan, qaysi?! Omadi chopib,

sog'lig'i tiklandi ham deylik. Inshaalloh, tiklangandir ham. Ora-sira aqlimga keladi, uni duo qilaman. Mendek bir onani kechirarmidi? Mendan uyaladi, mendan nafratlana-di. Jahannamning tubiga otilgan onasidan eng katta yomonlikni ko'rdi. O'sha jahannamning eng tubida tug'ildi. Kechirarmidi meni? Men bo'lganimda kechirmasdim, psixolog. Men yomon onaman, bilaman. Hatto, ona ham emasman.

– Yo'q, yo'q. Unday demang. Siz yomon ona bo'lganingizda bu gaplarni umuman aytmasdingiz.

– Qo'y-ey, psixolog, o'zingni ham, meni ham aldama. Yosh edim, aqlsiz edim deb o'zimni kechiraymi? Erkatoylikning o'zginasi bu! U bolaga qilgan yomonligimni qanday oqlay olaman? Men sababli nima og'riqlarni boshidan o'tkazdi, kim biladi. O'lmadi ham deylik, lekin kim nima qilardi giyohvand moddaga qaram bo'lgan, qotil onaning bolasini? Kim bunday bolaga yaxshi munosabatda bo'ladi? Yolg'izlikni tomirlaringacha his qildim. Yolg'izlik juda yomon, juda.

– Boshingizdan kechirganlaringizni aslo kamsitmayman va dardingizni juda yaxshi tushunyapman. Barchamiz, ya'ni butun insonlar turli xil dardlarni turli shakllarda boshimizdan o'tkazamiz. U yoshda hamma aqlsiz bo'ladi, faqat siz emas. Men ham, u ham, anavi ham. Siz boshqa insonlardan ko'ra ko'proq beshafqat shartlar ostida voyaga yetgan va zarar ko'rgani uchun, xohlamasdan bo'lsa ham, bolasiga zarar bergan bir onasiz. Shuni ham ayta olamanki, hali ham ona bo'lishingiz mumkin.

– Bu aytganlaring nimani o'zgartiradi?

Biroz avval aytganingizdek aqlsiz edingiz va buni qabul

qilishingiz o'zgarganingizni bildiradi. Demakki, o'tmishingizga qarab saboq olyapsiz, ulg'ayapsiz. O'tmishingizga faxrlanib qarasangiz, o'sha-o'sha degan bo'lardim, lekin oradagi farqni tushunadigan darajada o'zgaribsiz.

– Faqatgina yanada isyonkorroqman. Avvallari jimgina o'tkazib yuboradigan hamma narsaga qarshi bosh ko'taradigan bir telbaga aylandim. Telba bir ona-a!

– Unaqa demang. Bu mavzu haqida hali gaplashamiz. So'ramoqchi bo'lganlarimni so'ragim kelyapti hozir, ruxsatingiz bilan.

– Albatta, psixolog. Quruq qolma, so'ra.

– Aslo ma'lumot oladi, deb o'ylamang. Bu yerda gaplashilganlar, va'da beraman, shu yerda qoladi, lekin bir mavzu meni o'ylantirib qo'ydi. Ichkariga kirgandan keyin ham yillar davomida giyohvand moddaga qaram bo'lmaslik uchun davolanibsiz. Qayerdan topardingiz? Ya'ni qay tarzda davolanib-davolanib boshidan boshlardingiz?

– Boshqasi bu savolni bersa, haqiqatan, ma'lumot olishga harakat qilyapti degan bo'lardim, lekin sen astoydil qiziqib, shu darajada yoqimli so'rayapsanki, psixolog. Juda soddasan, ichkarida bu ishni qiladiganlar yo'q deb o'ylaysanmi? Tashqaridan ichkariga bu moddalarni olib kirishning bir qancha yo'llari bor. Sen giyohvand modda xohlayotganingni aytsang bo'ldi. Senga bir marta yaxshilik qilgan har kim, keyinchalik sendan yanada kattaroq yaxshilik xohlashi uchun seni xafa qilmaydi. Va bu mavzular muammoli joylarga borib taqalyapti. Bunday narsalar haqida gaplashganimizda bezovta bo'lyapman. Ichkari haqida ma'lumot olayotgandek savollar bo'lmasin va bu suhbatni rostdan to'xtataylik.

– Yaxshi, aytganingizdek bo'lsin. Bezovta bo'lishingiz uchun so'ramadim, ishoning. Mendan biron nima xohlay-sizmi? Tugatamiz endi.

– Ha, bor, psixolog. Bir quti sigaret olasanmi menga?

– Yana ishonch testimi? Koshki, boshqa narsa xohlasaydingiz, endi ishonmayman.

– Hazil, hazil. Rahmat, eshitganing uchun. Nega sigaret xohlaganingma kelsak, yana kel demoqchi edim.

– Va'da, kelaman.

– Yaxshi, – dedi va xonani tark etdi, do'stim.

Seans tugadimi, men tugadimmi, bilmayman. Chiqdim, orqasidan qarab qoldim. Uni bir kishilik hujra bo'limiga olib bordilar. Har holda shunday ko'rindi. Chunki uni olib ketishgan joy hamma ketadigan tomonda emasdi. Qiziqib xavfsizlik xodimidan so'radim.

– Ha, – dedi. – Uzoq yillardan beri yolg'iz qolyapti.

Qo'limga berilgan qog'ozga imzo qo'yib, topshirdim-da, u yerdan yugurgudek bo'lib otilib chiqdim, do'stim.



Qayerga borsang bor, borgan joyingda
taqdiring seni kutayotgan bo'ladi va sen
yelkangda o'tmishingni, ichingda og'riqlaringni
yuklab yurguningga qadar taqdiringga bo'yin
egishga majbursan, do'stim.
Chunki sen o'z o'tmishing tufayli kelajagingni
behuda sarflayapsan, do'stim.





Chiqqanimda shu darajada siqilgan ekanmanki, birinchi qilgan ishim galstugimni yechish bo'ldi, do'stim. Rutubatli havodan qutulish uchun chuqur-chuqur nafas olishni boshladim. Meni yana halovatsizlik qopladi. Aslida halovatsizlik ham emas. Go'yo Hasrat yelkamga bir yuk yuklagandek edi. Shunday bir yuk ediki, yelkalarimni ko'tarolmasdim...

Biroz toza havodan nafas olgach, onam yodimga tushdi. Jonim onam. Otamni olti yil avval yo'qotganimiz uchun onamga qarash mening zimmamda edi. Onamga qarash deganimda, onaga g'amxo'rlik qilish bizning burchimiz, u ma'noda aytmadim. Onamda alsgeymer kasalligi bor. Unutib qo'yadi meni, ko'pincha otam deb o'ylaydi...

Otam-onam qadrlı insonlar edi. Hammaning ota-onasi qadrlı, albatta. Juda kech farzandlı bo'lishgan. Shu sababli meni bir imkon, Allohdan kelgan bir lutf kabi ko'rardilar. Shu sababli har erkaligimga bo'yin eggandilar. Chunki yolg'iz farzand edim, uyning suyuqlisi edim.

Hashamatli bir hayotga ega edim. Ota-onam soyasida. Ammo, baribir, aytganimdek dardim bor deb siqilib yurgan erkatoy ekanman. Hozir anglab yetdim. Xullas, mashinamni oldiga bordim va o'tirdim. Ammo mashinani taxminan bir soatcha yurg'izmadim. Rulga boshimni qo'yishim bilan eshitganlarimning og'irligidanmi, bilmayman, lekin uxlab

qolibman. Bir signal ovozi bilan o'zimga keldim. Mashinani yurg'izdim. To'g'ri uyga tomon yo'lga chiqdim. Uyga yaqinlashganimda bildimki, men yo'l bo'yi muttasil ko'zyosh to'kibman. Xoh ishon, xoh ishonma, ko'ylagim ter sabab, yuzim ko'z yoshim sabab ho'l edi. Mashinani garajga olib kirayotganimda ko'rib qoldim, onam kechki choyini ichish uchun boquvchisi (xizmarkor) bilan balkonda o'tirgandi. Meni bunday ko'rishlarini xohlamasdim, aslida hech kim meni bunday ko'rishini xohlamadim. Garajda biroz o'zimga kelib olganimdan keyin uyga kirdim. Onamni "Jonim onam" deb, shunday bag'rimga bosdimki...

Onam meni bir yildan beri eslay olmayotgan edi, lekin bu gal meni esladi va: "Xush kelding, o'g'lim. Efeyim meni", deb kulimsiradi, do'stim. Men o'sha vaqtda bor ko'z yoshimni onamning oldida to'kdim. Men yig'ladi, u yig'ladi. Yig'layotganda esa shunday dedi: "Ona bilan birga yig'lash baxt".

Onamni uxlatdim va xonamga kirdim. Dush qabul qildim. Ikki rakat shukur namozi o'qidim. Duo qildim, holimga shukur qildim. Lekin bir gap aytgandim, eslaysanmi? Yordamga ehtiyoji bo'lgan bir insonni ko'rganda, o'z holingga shukur qilib chetga o'tsang, bir kuni yordamga muhtoj holga tushishing mumkin.

Hozir yordam berish payti edi, bir ishga yarash payti edi. Balki butun hayotim davomida ilk marotaba bir ishga yarardim.

Hasrat Kurtulush o'g'li Umid. Giyohvand moddaga qaram bo'lgan bir bola davlatga topshirilgandan keyin katta ehtimol bilan bir mehribonlik uyiga joylashtirilgandir. Tug'ruq qamoqxonaga yangi tushgan paytlari bo'lgani

uchun o'g'lining yoshi o'ttiz bir – o'ttiz ikki yoshlarda bo'lishi kerak edi. Mendan bir yosh kichik. Ajabo, qanday hayot tarzida yashayapti? Ajabo, yashayaptimi? Uni topishga harakat qilishim kerak, lekin Hasrat xonimning ruxsatisiz buni qanday uddalayman? Bu odobdan emas. Aslida Hasrat mening bemorim edi. Uning hayotiga bog'liq bunday ishni amalga oshirishim muammo tug'dirishi mumkin, lekin buni qilishim kerak. Qilishing kerak, Efe, bu ishni qilishing kerak!





Bir haftadan keyin

Shu bir hafta uydan hech qayoqqa chiqmasdan tekshiruvdagi butun uchrashuvlarimni bekor qilganimni aytay.

Shu bir hafta onamdan boshqa hech kim bilan shug'ullanmaganimni ham aytay.

Ammo, hozir Hasrat Kurtulush bilan uchrashuv payti keldi, yaxshilik payti keldi.

Qamoqxona tomon yo'l oldim. Yanada xotirjam holatda edim. Unga yordam bergim kelayotgandi. Endi men uchun bu shunchaki shifokor va bemor ishidan ortiqroq edi. Shu yergacha o'qigan hikoyangiz, mening hikoyam edi, lekin endi mening hikoyam emas. Bu noto'g'ri hayotda yashagan bir ayolning, Hasrat Kurtulushning hikoyasi.

Uchrashuv xonasiga kirdim va birinchi qilgan ishim sigaretini berish bo'ldi.

Kulimsiradi va:

– Xush kelding, psixolog, – dedi.

– Xushvaqt bo'ldik. Ahvolingiz qanday? Bugun oxirgi uchrashuvimiz. Psixologga berilgan muddat tugabdi, qaytib ketish kerak ekan.

– Yaxshiman, yaxshimanku-ya, ammo sen hozir meni davoladingmi?

– Ikki marta uchrashuv davolash uchun yetarli emas, lekin sizga foydam tegdi deb o'ylayman.

– Yo'q-yo'q, unday demadim, psixolog. Darrov himoyaga o'tyapsan. Go'yo meni ikki yildan beri davolayotgandeksan. Ichimni ochdim-ku senga, yengil tortdim go'yo. Menga vazifalar ham bergan eding-ku, ularni ham bajardim, psixolog.

– Zo'r, juda xursand bo'ldim. Toki nafas olarkansiz hech narsa uchun kech emas, shunday emasmi? Inson biroz bo'lsa ham yengil tortgach, bir qarorga kelib, hayotini boshqarishni xohlaydi.

– Ha, psixolog, haqlisan, lekin shuni ham aytishim kerakki, inson boshiga kelgan yomonliklarga qanday qilib bo'lsa ham ko'nikadi. Balki unutadi ham, lekin boshqalarga qilgan yomonliklaringni unuta olmaysan. Ha, mahkumman. Ha, yomon ishlar ham qildim, lekin yomon inson emasman. Bunga ishonchim komil.

– Menimcha ham. Men ham yomon insonsiz, deb o'ylamayman. Qarang, bu yerdagi vaqtingiz ham kamaydi. Agar hech qanday jinoyatga aralashmasangiz, juda qisqa vaqtda bu yerdan chiqib ketasiz.

– Qo'rqyapman, psixolog, qo'rqyapman. Inson ichkariga ko'nikkach, tashqari qamoqxonadek tuyiladi, ishon menga. Bu yerdagi devorlar insonni chegaralar balki, ammo ayni vaqtda himoya ham qiladi. Yillar bo'yi ko'nikmagan bir hayot tarzimga qanday ko'nikaman? Chunki tashqarida yanada yomonroq hayotda yashayotgan edim. Senga qanday tushuntirsam ekan... Shunday bir og'riq his qilyapman-

ki, u shu qadar ma'nosiz, shu qadar kuchliki, hech o'tib ketmaydigandek, hech to'xtamaydigandek. O'zimni juda zaif his qilyapman, juda zaif. Yuragimning siqilishidan nafassiz qolgan paytlarim ham bo'ladi. Hattoki, "Yaxshimisan?" so'rog'ini eshitmaganimga ham ancha bo'ldi. "Yaxshiman" degan yolg'onni aytadigan hech kimim yo'q, psixolog. Ich-ichdan qon yig'layman va buni faqat to'rt devorgina biladi!

– Insonmiz. Azoblanish ham, yig'lash ham biz uchun xos va bular zaiflik emas.

– Men allaqachon taslim bo'ldim, psixolog. Oyoqqa turib olishim juda qiyin!

– Bunday deyaversangiz, rostdan ham ojiz qolasiz. Siz kuchlisiz, o'z hayotingizni qutqarishga majbursiz! Bu siz uchun eng katta QUTULISH va eng buyuk najotdir, buni hech kim sizning o'rningizga qilmaydi!

– Kuchim yo'q. Ishon menga, ishonchim yo'q!

– Shu onda yashayotgan muhit va sharoitlaringiz naqadar yomon bo'lsa-bo'lsin, ular umringizning oxiriga kelganingizni anglatmaydi. Hali kitobni o'rtasidamiz, oxirida emas.

– Shunaqami, psixolog? Balki bir sahifa, balki bir bo'lim...

– Ha. Nafas olayotgan bo'lsangiz, bu hali ham hayotning bir parchasi ekanligingizni bildiradi.

– Shunday desak-chi, bugun shart-sharoitlar qanday bo'lsa-bo'lsin, nafas olayotgan bo'lsam, hayot hali meni yengmadi.

– Ha, hali yengilmadingiz. Va sizning hikoyangizning nihoyasini go'zallashtira olamiz. Yangi boshlang'ich nuqta yarata olamiz.

– Aytishga oson, shundaymi, psixolog? Ammo men uchun qiyin. Yangi deyapsan... Men yangi deganda nimani tushunaman, bilasanmi? Har kuni uyg'onganimda eskirmagan, ilk kundagidek ichimni yoqqan, og'ritgan og'riqlar! Bular doim yap-yangi!

– Menimcha, siz kuningizni eski og'riqlaringizni yangidek qilib timdalashdan boshlaysiz. Shuning uchun shunday his qilyapsiz o'zingizni.

– Nega tushunmayapsan, xohishim qolmadi? Shuncha-ki, qolmadi. Sen bilan suhbatlashayotib bir daqiqaga bo'lishi mumkinmi deb his qilmayapman emas, ammo oxirgi tomchining toshganiga o'ttiz yil bo'libdi.

– O'zingizga bir martagina ishonsangiz, siz uchun ancha oson bo'lardi. Kech qolganlik hissi sizni yeb bitiradi. O'zingizdan nafratlangan holda yashashga harakat qilyapsiz, lekin yashash bu emas. Qanday xato qilgan bo'lsangiz, qildingiz, qabul qiling, kechiring va yo'lingizda davom eting.

– Yashash deyapsan. U nima degani, hatto buni bilmayman ham. Senga aytib bergan qismimda, seningcha, men yashaganmanmi? O'zingni mening o'rnimga qo'y va to'g'risini ayt. Men hech yashagan ekanmanmi?

– Yoshingiz nechida bo'lsa-bo'lsin farqi yo'q, buni o'rgana olasiz. Faqat bir qarorga kelib, qat'iyatli bo'la olishingiz kerak. Giyohvand modda qarami bo'lish naqadar halokatlilik, barbod, jahannam ekani haqida aytyapsiz. Buni fahmlay olyapsiz, lekin bu fikringizda qat'iy tura olmayapsiz.

– Kuldirma meni, bola, kuldirma.

– Sizni boshingizdan o'tkazganlaringizni boshqasi o'tkazsa, balki allaqachon o'zini mozorga qo'ygan bo'lardi yoki yanada kattaroq jinoyatlarga aralashgan bo'lardi. Biroq sizning o'z joningizga qasd qila olmasligingiz jasoratsizlik emas, meningcha. Aksincha, yashashga jur'atingiz yetadigan darajada jasursiz.

– Sababi yo'q bo'lishiga qaramay, shundaymi? Naqadar ahmoqman, hali ham aqlsizman.

– Yo'q, sababingiz bor, lekin siz bilmaysiz.

– Nima ekan sababi?

– O'g'lingiz.

– O'glim? Bugun kuldiradigan kuningmi, psixolog. Hayotdaligini ham bilmaganim uni... Yashayapti ham deylik, uni topishim imkonsiz. Topdim ham deylik, uning o'rnida bo'lganimda kechira olmasdim.

– Aqlingizda doim shu savollar bor edi, shundaymi? Doim ayni gapni takrorlayapsiz. Men bo'lsam, o'zimni kechirmasdim.

– Eh, psixolog. Bir kalamushdek ongimni kemirgan, bo'rondek ongimda aylanayotgan savollar meni qo'yib yubormaydi.

– Bilaman, ishonchingiz komil bo'lsin, bilaman bu tuyg'uni. Ammo, aksincha, aslida siz yashash uchun kuchni xuddi shu savollardan olibsiz. Hayot ba'zan insonga shunday savollar beradiki, javobini olguncha qo'yib yubormaydi. Balki juda yaqinlashasiz, balki xohlagan javoblaringizni olasiz.

– Unday qilma, menga UMID berma. Bu yaxshi emas. Shunday yashab, shunday o'laqolay, ammo meni umidlantirma.

– O'zingizga bunday qilmang, yomon emas bu. Balki uchrasharsiz. Hayot sizga baxtli bir yakun tayyorlayotgan bo'lishi mumkin.

– Psixolog, baxtli yakun deyapsan. Yakun bor, ha, bilaman, lekin baxtli emas.

– Nega unday deysiz?

– Chunki chiday olmayman. Menga nafrat bilan qarasa, chiday olmayman, ana o'sha daqiqada o'lamen. Menga jasurlik haqida aytyapsan, lekin men qo'rqqoq bir insonman.

– Unday emasligini ikkalamiz ham bilamiz. Barchamizni hayotga bog'lovchi bir sabab bo'ladi. Sizning sababchingiz o'g'lingiz, mening sababchim – onam, boshqa birovniki mushugi bo'lsin, yana boshqasini virtual hayoti bo'lsin, farqi yo'q. Barchamiz bo'ynimizga olgan majburiyatlardan olamiz bu sabablarni.

– Ya'ni nima demoqchisan? Men shu yoshimda, boshimdan o'tkazganlarimdan mas'uliyat olamanmi?

– Ha, o'z hayotingizning mas'uliyatini o'z zimmangizga olasiz.

– Buni qila olishimga ishongim keladi-yu, lekin qila olmayman.

– Qila olasiz, nega qila olmas ekansiz? Siz o'lim o'rni-ga hayotni tanlay oladigan darajada jasur insonsiz. Buni unutmang, iltimos.

– Buni uddalashim uchun bir yo'l ko'rsat, psixolog, qila olishim uchun.

– Sizga bir hikoya aytib bergim kelyapti. Uzun emas qisqa, qo'rqmang.

– Bilasanmi, menga hech qachon hikoya aytib berishmagan. Uzun bo'lsa ham mayli, oxirigacha eshitaman.

– Xop. Bu bir savdogar bilan to'ti haqidagi hikoya.

Bir savdogarning to'tisi bor ekan. Mol sotib olish uchun savdogar vaqti-vaqti bilan Hindistonga borarkan. U oilasiga mehribon bo'lgani bois ketishdan oldin butun oila a'zolaridan:

– Hindistondan sizga nima olib kelay? Qanday sovg'a xohlaysiz?, – deb so'rar ekan.

Ayolining xohishlarini, farzandlarining xohishlarini birma-bir yozib olar va barchasini olib kelishga va'da berar ekan.

Bu safar bundan xabar topgan qafasdagi to'ti ham savdogar bilan oilasi o'rtasidagi suhbatga qo'shilib, turgan joyidan baqira boshlabdi.

– Mendan so'ramaysanmi?.. Mendan so'ramaysanmi?..

Savdogar qushning o'zini u yoqdan bu yoqqa urayotganiga chiday olmay, qafasning yoniga kelib: "Ayt, go'zal qushim, sen nima xohlaysan?" – debdi.

To'ti shunday bir iltimos aytibdi:

– Mening qarindoshlarim bor. Ular Hindistondagi o'rmonda yashaydilar. Ularga borib ayt: "Men qafasda yashar ekanman, sizlar o'rmonda, yashilliklar, mevalar orasida, yasangan go'zal juftlar bilan baxtli yashaysizlar. Men esa bu yerda, qafasda kun ko'rishga mahkumman. Mening sizlar kabi yayrab hayot kechirishga haqqim yo'qmi? Meni o'ylamaysizmi? Eslamaysizmi, so'rab-surishtirmaysizmi?"

degin ularga mening nomimdan. Va ularning bergan javobini menga olib kel. Sendan yagona iltimosim shu".

Savdogar avvaliga bu gaplarni ma'nosiz hisobladi. To'tini baxillik va hasadgo'ylikda aybladi. Qarindoshlarining o'rmonda erkin, juftlari bilan baxtli yashashini ko'rolmayapti, shekilli, deb o'yladi. Ammo to'tisini juda yaxshi ko'rgani uchun: "Xo'p, sening xohishingni bajo keltiraman. Hindistonga borganimda o'rmonni topib, qarindoshlaringa aytaman...", dedi.

Va yo'lga chiqdi. Juda uzun yo'l. Tuyalarda, otlarda yo'ldagi ko'p to'siqlardan oshib o'tdi. O'g'rilar, qaroqchilardan o'tib, oxiri Hindistonga yetib keldi...

Sehrli Hindiston, ziravorning iforlari, jimjimador matolari bilan dovrug' qozongan Hindiston va u joydagi rango-rang xayolot dunyosi. Bozorlarda aylandi. Tijorat qiladigan mollarining eng chiroylilarini tanladi. Barcha yuklarini karvoniga yukladi. Barcha ishlarini bitirgach, olib borishi kerak bo'lgan hadyalarni birma-bir qidirib topdi.

Oxirgi daqiqada to'ti esiga tushdi. Mendan bir narsa iltimos qilgandi, men ham unga va'da bergandim, deya darhol aholidan bu yerdagi to'tilar qayerda yashashini so'radi.

Ular ham zudlik bilan ularning yashash manzilini tasvirlab berdilar.

Shundan so'ng u to'g'ri o'rmon tomonga yo'lga chiqdi. O'rmonga borish ham bir-ikki kun vaqtini oldi. Nihoyat, o'rmonga kirganida yuzlab to'tilarga duch keldi.

Oooo, to'timizning qarindoshlari shular bo'lsa kerak, shekilli, deb o'yladi. Biroz tin olib, to'tilarni tomosha qilishni boshladi. Ularning barchasi rango-rang. Juftlari bi-

lan birga tumshuqlarini bir-biriga urishtirishyapti, mevalardan yeyishyapti. Turib-turib o'ziga o'zi shunday dedi: "To'tim haq. Uning qarindoshlari bu joyda ozod va erkin, mening to'tim esa qafasdan chiqmaslikka mahkum..."

U to'tilarga qarab: "Mening bir to'tim bor, biz bu yerdan ancha uzoq bo'lgan mamlakatda yashaymiz. U sizlarga shunday xabar yetkazishimni istadi. Yana u: "Men qafasning ichida ozodlikdan mahrum holda yashar ekanman, mening u yerdagi qarindoshlarim turli ranglar ichida, o'sha go'zal o'rmonda, mevali daraxtlar orasida yashashlari adollardanmi?" – dedi. Savdogar shu gapni aytishi bilan oldingi qatorda turgan to'tilardan biri titray boshladi va birozdan so'ng shoxidan shilq etib yerga tushdi.

Savdogar borib qarasa, rostdan ham o'libdi. "Ey Alloh, men uning o'limiga sababchi bo'lib qoldim. Demak, bu to'ti mening to'timning eng yaqin qarindoshi. Uning qafasda yashayotganini eshitib falaj bo'lib o'ldi. Men bunga sababchi bo'ldim. Ahmoq bo'lmasam, to'tining gapiga kirarmidim, – deya afsuslanib o'tirganida allaqachon kech bo'lgandi, to'ti jon taslim qilgandi..."

Ming pushaymon holda yurtiga qaytib bordi. Kunlab, haftalab davom etgan sayohatdan so'ng Bag'dodga keldi. O'zining tijorati uchun zarur bo'lgan mollarni tushirdi va uyiga bordi. Ayolining, farzandlarining sovg'alarini tarqatdi. Bu orada qafasdagi to'ti nima bo'lishini intizorlik bilan kutar ekan, hamma sevinch bilan bir-biriga minnatdorchilik izhor qilishayotgandi. Ular hadyalarini tomosha qilarkan to'ti birdan baqirishni boshladi:

– Mening aytganimni qildingmi, qarindoshlarimni topdingmi?

Savdogar norozi qiyofada to'tining yoniga bordi va: Koshki, sening aytganingni qilmasaydim, koshki sen aytgan so'zlarni ularga yetkazmasaydim! Menga og'ir yumush buyurding va men bundan juda afsusdaman! – dedi. To'ti: – Nima bo'ldi? – deb qiziqib so'radi. Savdogar: – Sening aytganlaringni yetkazayotganimda oldingi to'tilardan biri titradi, keyin pastga quladi va o'ldi. U sening eng yaqin qarindoshlaringdan biri, shekilli. Sening qafas ichidagi holingdan xabardor qilib uning o'limiga sababchi bo'ldim va buning asl sababichisi esa sensan! – deya so'zlarkan, to'ti birdan titrashni boshladi va tap etib yiqiladi-da, toshday qotdi.

Savdogar yanada qattiqroq afsuslanib: “Yo Alloh, bu ham jonidan ayrildi!” – deb shoshgancha qafasning eshigini ochdi va to'tisini hovuchga olib: “Ey go'zal to'tim, men sening o'limingga sababchi bo'ldim”, deyishi bilan to'ti pirr etib uchib ketadi. Derazadan chiqib, shoxga qo'nadi. Savdogar hayratda qoladi. Bir to'tiga qaraydi, bir bo'sh qolgan hovuchiga...

– Ko'rdingmi? – deydi to'ti.

– Nimani ko'rdimmi? – deydi savdogar.

– U yerdagi qarindoshlarim menga qafasdan qutulish yo'lini qanday o'rgatdilar. O'zingni o'lgandek ko'rsat. Shunday qilsang, albatta, seni qafasdan chiqaradilar. Paytdan foydalanib tashqariga chiqib uchasan va bizning yonimizga uchib kelasan. Ular holat tili bilan menga qanday qutulishni tushuntirdilar! Ey suyukli sohibim, sen ham mendek ozod bo'lmoqchi bo'lsang, tanangning qafasidan chiq. O'lmasdan avval o'lginki, haqiqiy ozodlikka, haqiqiy hurlikka erishasan!..”





Xullas, hikoya mana shunday yakun topadi. Bu yerda ruhning aslo o'lmasligi haqida aytilyapti va men sizning hayotingizga qaraganimda, siz o'lmasdan avval ko'p marta o'libsiz, lekin hech birida tirilmabsiz. Endi esa siz menga va'da bering, men ham sizga va'da beray. Sizning va'dangiz bugun uyquga ketishdan avval duo qilib yotishingiz va tongda uyg'onganingizda yangi bir hayotni yashashingiz, o'g'lingizni topib, bu yerdan qutulishingiz va o'limni aslo tushunmaslik, mening va'dam esa siz uchun o'g'lingizni topishim bo'lsin!..

O'sha onda ko'z yoshlari sel bo'ldi uning. O'lmasdan avval o'lish deb besh olti marta takrorladi.

– Ha, psixolog, ha. Bu safar o'lmasdan avval o'laman, lekin bu safar jonimga qasd yoki boshqa yomon narsa bo'lmaydi. Va senga va'da beraman. Bundan keyin sokin qolgan holda bu yerdan qutulib, o'g'limga erishadigan kunimni kutaman. Ammo psixolog, menga yolg'ondan umid berayotgan bo'lsang, ikki qo'lim yoqangda bo'ladi!

Men esa tabassum qildim, bor-yo'g'i tabassum qildim, lekin bu tabassum kamida quyosh kabi edi. Hamma joy yorug'lashgandek va bu yorug'lashishga mening hissam

qo'shilgandek his qildim o'zimni.

– Yaxshi, demak, kelishdik! Ikki qo'lingiz yoqamda bo'lsin, roziman.

– Kelishdik.

– Menga nega yordam berayotganingni bilmayman, psixolog. Lekin, bilasanmi qiyomat kelgandek his qilyapman. Birov yaxshilik qilsa, qiyomat keladi deb fikrlash juda yomon. Yomonlikka shu darajada o'rganib qolibmanki...

– Balki o'zimga qilgan yaxshiligimdir bu, bilmayman. Siz mendan xabar kuting, yomon xayollarga berilmang, iltimos.

– Xo'p, psixolog. Bugun duo qilib, tongda yangi hayot bilan uyg'onaman!

– Sizga ishonaman!

– Menga ishonganing va yordam berganing uchun takror va takror rahmat aytaman, lekin senga bir savolim bor.

– Marhamat.

– Va'da berish nima degani, psixolog?

Tabassum qildim.

– Shu joyda kichik bir hikoya aytib beray unda. ...O'n to'rt yoshdaman. Juda erkato'y bola bo'lishimga qaramay, o'z xarajatimni o'zim qoplash uchun bir joyda ishlashni xohladi. Otamdan o'tinib so'raganimdan keyin otam menga bir ish topib berdi. Otamning do'sti Duha amaki-ning yonida sirpanchiqli, katta bir hovuzi bor aqvaparkda ishlay boshladim. Barboddan ham battar bir ish edi. Shu darajada issiq ediki, boshqalar kabi hovuzga tushgim keldi, ammo tusholmasdim va qo'limda patnis ko'targancha salqin ichimliklarni olib yurib, ofitsiantlik vazifasini

bajarardim. Hamma zavqlanayotgandi, lekin men ishlayotgandim. Ikkinchi kuni ishdan bo'shashga qaror qildim va otamning oldiga bordim. Vaziyatni tushuntirdim. Otam esa mendan Duha amakiga yozda u yerda ishlash uchun va'da bergan-bermaganimni so'radi. Va'da bergandim! Unday bo'lsa, va'damni ustidan chiqishim kerakligini aytdi. Va'da berganim uchun hayotimning eng qiyin ikki oyini u yerda o'tkazdim. Oxirgi kundan boshqa. Duha amaki ishlayotganimda yonimga kelib, yigirma yildan buyon mendan boshqa bironta bolaning yoz bo'yi bu yerda ishlama-ganini aytib, mukofot puli berdi. Naqd 75 TL². U mening ishlab topgan eng qadrlı pulim edi va uni hali ham asrayman. Lekin puldan muhimrog'i, va'damning ustidan chiqishni ana shu joyda o'rgangandim.

U tabassum qildi va:

– Ana, psixolog, ko'rdingmi? Demak, sadoqat barchasidan ustun turadi. Rahmat, va'daning nima ekanligini yaxshi bilishingni tushundim.

– Ha, sadoqat barchasidan ustun. Aytganimdek, bu darsni bebaho shaklda o'zlashtirganman.

– O'zingni ehtiyot qil, psixolog. Yaxshi qol.

– Men ham yaxshi bo'layku-ya, asosiysi biz yaxshi bo'laylik. Yomon narsalarni boshimizdan o'tkazsak ham, yaxshilikdan voz kechmasdan yaxshi bo'laylik! O'zingizni asrang...



Yaxshi inson bo'lish,
yomonlikni bilmaydi degani emas.
Yomonlikni bilgan, tushungan, his qilgan,
lekin yaxshilikni tanlagan demakdir!





Qamoqxonadan chiqqanimda tuyg'ularim ostin-ustun edi, lekin juda kuchli va juda istakli edim, endi yuqoridagi hikoya bilan birgalikda ichimdagi qamoqxonadan men ham ozod bo'lgandim go'yo!

Endi boshqa bir Efe bor edi. Balki Hasratning sababi, mening ham sababim bo'lgandi. Hayotda qolish uchun, quvonch uchun, baxt topish uchun. Uzoq vaqtdan beri o'lgandek edim. Endi o'lik tuproqni otish vaqti kelgandi. Barchaning so'ragan savollariga javob berish vaqti keladi. Balki ichimdagi yo'qolgan narsalarni bu so'z bilan birga men ham topa olardim. Foydam tegardi!

Hech kimga ayta olmayotgandim, lekin Hasratning bo'shlig'ini to'ldirish uchun harakat qilardim, ammo o'zimning ichimdagi bo'shliqni qanday to'ldirishni aslo topolmadim. Bir narsalarga ehtiyojim bor edi. Bir narsaga, lekin nimaga? Yillar davomida o'z-o'zimga bu savolni berib kelardim, lekin topa olmasdim. Nima ehtiyojim bor edi, qanday bo'shlig'im bor edi: topa olmayotgandim!

Mashinamda uyga qaytdim. Avtoturargohda uzoq vaqt kutdim. Har tomonlama o'yladim va o'zimga o'zim va'da berdim. Hasratning o'g'lini topaman!

O'ziga va'da berish boshqasiga va'da berishdan ko'ra qiyinroq, chunki va'daga vafo mutlaq bir qiyinchilikdir.

Hasratning o'g'lini topaman!



Qila oladiganingni, qo'lingdan kelganining
eng yaxshisini qil!
Bu sening qanday inson ekanligingni
namoyon qiladi.





O'zinga bir yo'l xaritasi chizdim. Avvalo, mehribonlik uyidan boshlashim kerak edi. Bormasdan oldin universitet paytidagi ustozlarimning biridan ko'mak so'radim. Ko'mak so'rash yaxshi, ko'mak so'rash zaiflik emas!

Ustozim menga yo'l ko'rsatdi va ularning yordamida shaharning eng katta mehribonlik uyi mudiri bilan bog'landim va uning yoniga borish uchun yo'lga chiqdim. Bundan tashqari, yordam so'ramasam, o'zboshimchalik bilan u yerga ketsam, ishoning, javob ololmasdim! Taassuf, shunday bir davrdamizki, tanishing bo'lmasa, hech kimsan!

Hayajon to'la boshlagan bu yo'limda, Allohning izni ila go'zal narsalarga erishishimga va Hasratni hasratdan qutqarishimga ishonayotgandim, chunki niyatim soflik va yaxshilik edi.

E'tiqod va yaxshilikning ocholmagan eshigi yo'q!





Yo'lga tushdim, bordim. Biroz kuttirdilar, lekin oxiri mudir beyning xonasiga qabul qilindim. Mudirga boshidan oxirigacha hikoyani to'liq aytib berdim. U esa mendan aniq sana va ism-sharif aytishimni so'radi. Ehtimol darajasi juda kam edi, chunki bolaning, ya'ni Umidning kasalligi millionda bir, hatto milliardda bir insonda uchraydi desak ham bo'lardi...

Ma'lumotlarni olgan mudir arxivga tushish uchun xonadan chiqar ekan, menga shunday bir gap aytdi:

– Igna bilan quduq qaziyapmiz, qani, ko'raylik-chi.

– UMID QIDIRAYOTGAN BO'LSANG, UMID-SIZLIKKA O'RIN YO'Q! dedim va uning gapiga e'tibor bermadim. Va mudir bey xonadan chiqib, arxivga ketdi. Men ham qo'limga telefonni oldim, "Google"dan qidirishni boshladim. O'sha yilga oid xabarlar, tug'ilishlar, borini ko'rib chiqishga harakat qildim, lekin hech qanday xabar, militsiya bayonnomasi yoki boshqa narsa topa olmadim.

Ehtimollarni qiynayotgandim. Firatning o'lim xabarlarini ko'rib chiqishim kerak dedim. Ko'rib chiqishni boshlashim bilan eshik ochildi va mudir bey keldi.

– Afsuski, qaydlarda bunday bola yo'q, lekin seni yana biroz kuttiraman. Yana surishtirishyapti. Ungacha bir qahva ichsak, nima deysan?

– Bo'ladi, albatta, lekin qanday surishtiruv?

– Kasalxonalarni qaratyapman. U zamonlarda bu kasallikdan davolanganlar bormi deb. Zero, ustozning hurmati katta. Seni hech narsasiz qaytarib yuborgim kelmayapti.

– Katta rahmat. Rostdan ham juda katta yaxshilik bo'lardi.

– Eh, bolam, yaxshilikni bilmaymiz biz. Bilganimiz bilan nima bo'ldi? Yomonlik bilan javob qaytarganlari uchun yaxshilikdan voz kechdik, hurmatga qarayapmiz endi.

– To'g'ri aytasiz deyishni xohlamasdim, lekin shundayga o'xshaydi.

– Shunday, shunday. Umid qilamanki, bolani topamiz.

– Yagona tilagim shu.

– Bu bola senga kim bo'ladi? Ukang yoki biror kimingmi?

Rostdan ham, do'stim, buni sira o'ylamabman. Mening kimim edi u?

– Yo'q, ukam emas. Shunchaki bir bemorimning yaqini.

– Qiziq, hech kim bemorimning yaqini deb bunday qidirib kelmagan edi. Insonlar, odatda, aka-ukasi, o'g'li yoki birinchi darajali qarindoshlari uchun keladilar. Hayron qoldim, to'grisini aytсам.

– Nimaga hayron qoldingiz?

– Yaxshi niyatingga, bolam, yaxshi niyatingga.

– Ishimni yaxshi ko'rib qilaman, deylik.

– Bu ishing emas. Ustozing telefon qilganida, psixolog bir o'quvchim, dedi. Psixolog emasmisan?

– Ha, psixologman, lekin psixolog bo'lishim yaxshilik qilishimga to'sqinlik qilolmaydi.

– Qoyil-e! Ismingni nima degan eding?

– Efe.

– Ismingdek yasha. Umid qilamanki, biror iz topamiz va u yerdan davom etamiz.

Eshik taqilladi, qahva keldi, qahva sovidi. Bir-birimizga qarab o'tirdik. Sovuq muhit bor edi. Yaxshilik qilishni shu darajada yomonlagan bir insondan yaxshilik kutayotgandim.

Yana eshik taqilladi va qog'oz keldi. "Mudir bey, marhamat", – deyildi.

Mudir esa qog'ozni menga uzatarkan:

– Omading bor ekan, bir iz bor, – dedi.

– Katta rahmat, – deb qog'ozni oldim. Oldimdagi muzlab qolgan qahvani bir ko'tarishda ichib, vaqtni bekor kerkazmay deb xonadan chiqayotgan edim hamki, qo'limdan ushladi.

– Eshit, bolam, haddim bo'lmasa ham senga bir narsa aytaman, aybga buyurma. Bu yo'lda yurishni boshlagan ekansan, to'xtaydigan mantiqli bir yering bo'lmaydi. Sog'lig'i, qanday yashayotgani bilan qiziqishing mumkin. Uni kuzatishing yoki kuzattirishing mumkin. Himoyang ostiga olishing mumkin. Xohishlarini, orzularini, barchasini o'rganishing mumkin. Uning hayotini nazorat qilishing mumkin. Hatto bir necha yil buning foydasi bo'ladi. Uning ko'rinmas yordamchisi bo'lishing bilan o'zingni yaxshi his qilishing mumkin, lekin bu uzoq davom etmaydi. Bu bir yolg'onchilik. Buning unga umuman aloqasi yo'q, senga aloqasi bor! Ichingdagi tuyg'uni bostirish uchun o'zingni o'qqa-cho'qqa urasan. Eshit, butun ishlatadigan

puling, ketkazadigan vaqting, qiladigan yaxshiliklaring, unga bergan umiding bekorga ketsa, hech qaysi biri uning o'rnini bosolmaydi. Shunchaki bir kichik yaxshilik bo'ladi. Bu sen uchun yaxshilik, lekin unga og'riq bo'ladi. Bilib qo'ygin, bolam.

U gapirayotganida ko'zlarim beixtiyor namlandi. O'sha vaqtda umuman tanimagan odamimdan shunday bir dars oldim. To'g'ri aytayotgandi, amalga oshmasa-ya? Bu fikr miyamda bor edi, ammo bu umidni men bergandim, mening xatom bo'lardi. Agar amalga oshmasa, nima qilsam ham u o'zini yaxshi his qilmasligiga ishonchim komil.

Bu menga bog'liq edi. Buni o'zimga yaxshilik qilish uchun qilayotgan edimmi yoki Hasratga yaxshilik qilish uchunmi bilmayman, lekin nomi yaxshilik edi!

To'xtab qoldim, qog'ozga qaradim. Qog'ozda kasalxonaga nomi bor edi. Darrov kasalxona tomon yo'lga chiqdim. O'ttiz yil, do'stim, o'ttiz yil. Hatto, mudir bey aytganidek, rostdan ham igna bilan quduq qaziyotgandek edim, lekin igna bilan quduq qazib bo'larmidi? Bo'ladi. Alloh yordam bersa bas. Ichimda katta bir UMID bor edi, ustiga-ustak, bilasanmi, ichimdagi meni bezovta qiluvchi bo'shliq hissi bor edi-ku, shu ham yo'q bo'ldi. Alhamdulillah, meni tark etgandi!

Kasalxonada tug'ruq bo'limi bilan bog'lanish, qaydlarga erishish anchagina ovora qildi va meni charchatdi. Ma'nosiz holda u yo'lakdan bu yo'lakka yugurtirishdi. Xato yo'naltirishlar, insonlarning bee'tiborligi, o'zimning qo'limdan ish kelmasligi, nima deb nomlasang nomla, lekin yugurtirildim. Nihoyat bir hamshira: "Albatta, yordam beraman", deganida nima deyishni bilmay qoldim.

O'ttiz yil oldingi ma'lumotni bilmaydigan darajada yosh edi.

Aytgancha, mudir menga avvalgi bosh hamshira tanishim degandi, ammo o'shanda eshitmaganimni hozir payqab qoldim. Uning munosabati sababli nafaqat eshitgim, balki suhbat qurgim ham kelmagandi. Darhol hamshiraga:

– Eski bosh shifokorlaringizdan birini qidirapman, – dedim.

– Eski bosh shifokorlarmi? Bilmayman, lekin orqangizdagi taxta biladi, – dedi va kulimsiradi.

Ko'zim hech narsani ko'rmayotgandi, do'stim. O'sha taxtaning oldidan ellik marta o'tgandirman. Orqamga bir qarasam, yillar davomida ishlagan ishchilarning rasmlari, yillari, hammasi yozilgan edi.

Qo'lim bilan sanab topgan odamimning ismiga endi qarayman deganimda:

– Ustoz Emre u. Agar hali chiqishga ruxsat berishmagan bo'lsa, kasalxonamizdagi yurak jarrohligi bo'limida davolanyapti. Siz omadlisiz, lekin u bemor omadli emas. Foydasi tegsa, balki o'zini yaxshi his qilari, shifo bo'lar. Yugur, bo'l, deya jasorat berishga harakat qildi o'sha kulimsiragan hamshira.

Insonlar yordam berganlaridagi go'zal tabassumlari juda yaxshi malham-da, do'stim!

Rahmat aytib, yurak jarrohligi bo'limiga ketar ekanman, hayollar aqlimni egallab oldi. Go'yoki, barchasi oson hal bo'layotgandek edi. Bo'lishi mumkinmi? Reja yo'q, loyiha yo'q. Yaxshi niyatimni yelkamga ortib, uzoq bir yo'lga chiqdim. Go'yo Alloh ishimni oson qilayotgandi.

Yurak jarrohligi bo'limining oldiga kelganimda u yerdagi hamshiraga ma'nosiz qaramadim, chunki beradigan savolimni bilardim. Kutib o'tirmasdan eski bosh shifokor Ustoz Emreni qidirayotganimni aytdim. Ismni eshitgan hamshira 356-xona deb qo'li bilan yo'lak oxirini ko'rsatdi.

To'g'ri 356-xona tomon yurdim. Eshikni taqillatdim va ichkariga kirganimda to'lachadan kelgan, qari bir amakiga ko'zim tushdi. Og'zidagi kislorod maskasini tushirdi va kulimsiragancha: "Bu xonaga adashib kirib qolding, shekilli, bolam", – dedi.

Uning tabassumidagi samimiyatni his qilgan holda men ham tabassum qildim va: "Yo'q-yo'q, sizni qidirayman eski bosh shifokor Emre amaki".

– Amaki? – deb hayron bo'lib qaradi.

– Amaki yoshidasiz-da.

– Ha, u ma'noda bo'lsa, tushunarli. Kel-chi, bolam.

Yoniga o'tirdim.

– Ahvolingiz qanday? Yaxshimisiz? Yillar davomida mehnat qilgan kasalxonangizda bir davolanay debsiz-da.

– Ha, yomon ahvolda edim, lekin hozir yaxshiman. Bir narsani tushunmadim. Biz tanishmizmi?

– Yo'q, tanish emasmiz, lekin sizni ishlagan yillaringizga doir bir ma'lumot kerak menga.

– Xo'sh, nega unda ma'lumotni olish uchun savol bermaysan-da, ahvolimni so'rab gapni olib qochasan?

– Bu gapni olib qochish emas, insonlarni qadrlash.

O'sha vaqtdagi uning tabassumi oy kabi yorug' edi, do'stim.

Bir insonga qadrli ekanligini bildirish uchun ortiqcha harakat qilish shart emas. "Yaxshimisiz?" degan savolning o'zi qadrli ekanligingni ko'rsatadi.

Yaxshimisiz?

– Inson bo'lish boshqa narsa. Hozir sen mendan nima so'rasang so'ra, qo'limdan kelgan barcha narsani qilaman.

– Bir ma'lumot kerak.

Yilini, kunini va kasalligini aytdim.

– Ha-ha, UMID!

– Ha, Emre amaki, to'g'ri.

– Ammo, unga boshqa ism berilgandi. Ya'ni, qo'lida Umid deb yozilgandi, lekin nima edi-ya, eslolmadim.

– Adashayotgan bo'lishingiz mumkinmi?

– Yo'g'-e, ayolni ham eslayman. Bunday hodisalar qirq yilda bir bo'ladi yigit. Qiyinchilikda toblangan, kichikkina va yoqimli bir qiz edi. Mahbus bo'lgani uchun jandarm-lar olib kelgandi. Bilsam, bolaning otasini o'ldirgani uchun jazo muddatini o'tayotgan ekan. Juda hayron qolgandik.

– Ha, aynan xuddi shu holat, Emre amaki. Ayolning ismi HASRAT KURTULUSH, o'g'li esa Umid.

– Yo'q, Umid deb bilagiga yozilgandi, lekin u ism berilmadi, bunga ishonchim komil. Hatto, kasalxonadan chiqmay turib asrab olindi u bola. Juda uzoq davolandi. G'oyatda yaxshi eslayman.

– Emre amaki, juda muhim, juda qadrli ma'lumotlar bular, lekin yaxshiroq eslashga harakat qilib ko'ring, iltimos.

– Harakat qilyapman, lekin ancha yil bo'ldi. Ko'p marta uni o'ldi deb o'ylagandik, nafas olmayapti deb hisoblagan-

dik. Uzoq muddat parvarishlagan bolamiz edi u, lekin ismi, ishon, esimda yo'q.

– Tushundim. Xo'p, unda kim asrab olganini eslay olasizmi?

– Ha, esimda. Nima edi-ya!

O'sha vaqtda jimjitlik ichida kutayotgandim, do'stim.

– Oila olib ketishga kelganida oxirgi marta men imzolagandim hujjatlarni. Biroz ruxsat ber, eslayman, – deb kislorod maskasini butunlay olib tashladi yuzidan. Ko'zlarini yumdi.

Men esa: “Allohim yordam ber!” degancha ich-ichimdan o'tina boshladim.

Bir daqiqa davomida biroz kutgandan so'ng: “TUG'RA U...! Ha-ha. Ism-familiyasi aniq shu”.

– Bayrakmi familiyasi? Eski otasining familiyasimi bu?

– Yo'q-yo'q, asrab olgan oila ismi, familiyasini o'zgartirdi. Hattoki, hujjatlarni olib keldilar, men imzoladim dedim-ku, o'sha-da, yaxshi eslayman.

Darhol yozib oldim. Quvonchdan do'ppimni osmonga otayozdim. Topishimga oz qoldi deb, baqirgim kelayotgandi.

Emre amakining qo'lini o'pib olgim keldi o'sha paytda. Egildim, lekin “kerak emas”, deb qo'lini uzatmadi.

– Yordam berishim mumkin bo'lgan boshqa narsa bormi?


– Qayerga yuborilganini eslaysizmi? Shahar yoki tumanmi, Emre amaki. Qancha ko'p bilsam, menga shuncha yordam bergan bo'lardingiz.

– Bola giyohvand moddaga qaram edi. Bunday ma'lumotlarni davlat oshkor qilavermaydi. Davlat voyaga yetganlarida ularga tahdid qilinmasligi uchun ehtiyot bo'lib saqlaydi, bolam. Arxivda ham bo'lmasligi mumkin bu kabi ma'lumotlar. Allohga qasamki, mening bilganlarim shular. Ular haqida hech qanday ma'lumotim yo'q, ularni topa olmaysan ham. Ism va familiyasi orqali yo'lga chiqishing kerak.

Emre amaki menga keragidan ortiq yordam bergandi. Unga katta rahmat aytib xayrlashdim, lekin xayrlashayotib aytgan gapi menga juda yoqdi.

– Yana kel, yigit. Suhbatlashishga kel.

– Inshaalloh, – deya tabassum qilgancha xonadan chiqdim.





Xonadan chiqar-chiqmas hamshira bilan uchrashib, Emre amaki haqida bir qancha ma'lumotlarni bilib oldim. Hech kimi yo'q ekan, ziyoratchisi ham, ahvolini so'raydiganlari ham yo'q ekan.

Bu nafsoniyatimga tekkani uchun hamshiraga telefon raqamimni qoldirdim. Agar biror yordamga ehtiyoji bo'lsa, Emre amaki uchun qilishim mumkin bo'lgan biror yordam bo'lsa, qo'ng'iroq qilsin deb.

Dardim bor edi, ha. O'sha vaqtda buni qanday qilib o'ylay olding deyotgandir, bilaman, lekin shuni bilingki, o'z dardingga darmon qidirayotganda boshqa bir dardga befarq qololmaysan! Ustiga-ustak u inson senga darmon bo'lishga harakat qilgan bo'lsa. Yaxshi insonlar bilan yomon insonlarni ajratib turuvchi yagona omillardan biri ham, menimcha, shu!

Insonmiz, beayb Parvardigor. Ishonaman, nima qilsam ham, qilmishimga yarasha yo mukofot yoki jazo olaman. Qaytar dunyo bu!

Xullas...

Yo'lda davom etdim. Hamshira bilan xayrlashgach, qo'limdagi ma'lumotlarni ko'zdan kechirdim, go'yo ishim ancha qulaylashgandi. Agar omadim chopsa, bu ism-sharif bilan biror narsaga erisha olardim.

Mashinam tomon katta-katta qadam tashlab yurdim. Qo'l-oyog'im titrayotgandek his qilayotgandim o'zimni, lekin yaxshi edim, g'oyatda yaxshi.

Mashinaga o'tirar-o'tirmas telefonimni qo'limga oldim. Qidiruvdan TUG'RA U.ni izladim. Izlayotgan odamim o'ttiz yoshlarda edi. Profillarga birma-bir qarayotgandim, lekin ijtimoiy tarmoqda o'ylaganimdan ham ko'proq TUG'RA U. bor ekan. Yashayotgan shahri, shug'ullanayotgan ishi – bular haqda hech narsa bilmasdim. Rasmlarga qaray boshladim. Balki Hasrat Kurtulushga o'xshagan bir profil toparman, ammo hayot Hasratni shu darajada toblaganki, siymosining ancha o'zgarganiga ishonchim komil. Ikki soatga yaqin mashinada o'tirdim. Internetdan qidirib hech narsaga erisha olmadim. Topa olmasam-chi... Mehribonlik uyidagi odamning aytganlari ongimda aylanayotgan bo'lsa ham, uni bir onda yengdim! Umidsizlik yo'q edi, yo'q! Mashinamni haydashni boshladim, to'g'ri uyga qarab yo'l oldim. Yo'ldaman, lekin miyamda turli xil fikrlar to'xtamay aylanayotgandi. Balki militsiya qaydlaridan bir nimalar chiqarsa bo'lar. Biror mas'ul komissar yordam bersa, ko'p narsaga yaqinlasha olardim balki, deb turganimda rahmatli otamning yaqin do'stlaridan biri eski prokuror Burak amakim yodimga tushdi. U menga yordam berishi mumkin. Uyga borib qo'ng'iroq qilish uchun otamning yondaftarchasidan raqamini topishim lozim edi.

Uyga kelganimda mashinani to'g'ri bog'ning kirave-rishida qoldirib, zinapoyalardan uyga chiqdim. Eshikni xizmatkor ayol ochdi, onamni so'radim. Onam dorilarini ichganini va uxlayotganini aytdi. Men ham to'g'ri otamning ishlaydigan xonasiga ketdim. Eski yondaftarchalaridan Burak amakiga bog'lanishim uchun yordam beradi-

gan biror ma'lumot qidirishni boshladim. Xonada shu darajada jo'shqin, shu darajada hayajonli bir izlanishda edimki, ikki-uch soat o'tib ketganini ham bilmay qolibman. Havosiz xonada terlashdan o'layotgandek edim, lekin baribir soatlab davom etgan qidiruv natijasida hech narsa topa olmadim...

Kunlar shunday davom etayotgandi, do'stim. Na Burak amaki bilan bog'lana oldim, na profillardan chiqqan odamlarga yuborgan xabarlarimdan jo'yali javob ololdim. Kunlar o'tar ekan, o'ylayverib miyam yorilgudek bo'lar, sog'lom fikrlay olmasdim ham. Uch-to'rt kun o'tganiga va ism-sharifini topganimga qaramay, bir qadam ham tashlay olmayotgandim. Bir narsa yetishmayotgandi, lekin nima u? Aslida, bu savolga shu darajada ko'nikkan edimki... Ammo bu savolning javobini aslo topolmagandim. Yana unga duch keldim. Bir narsa kamdek, lekin u nima?

Va nihoyat uydagi narsalar orasidan telefon raqamni topdim va Burak amaki bilan bog'landim. Barcha ma'lumotlarni berdim. U esa mening hech narsa qilmasdan kutishim va xotirjam bo'lishim kerakligini, qo'lidan kelganini qilishini, yangilik bo'lishi bilan menga xabar berishini aytdi.

Men esa bu orada Hasrat Kurtulushning ziyoratiga bordim.

Meni ko'rganidan juda xursand bo'ldi, ammo bu safar yuzma-yuz emasdik. Ya'ni o'rtamizda katta simli to'rt va oynalar bor edi. Bir-birimizga qaragan holda telefonda gaplashayotgandik.

Qo'limda asosli hech narsa yo'q edi. Boshqa tomondan esa umid berayotgandek gapirgim ham kelmayotgandi, lekin u uchun qo'limdan kelganini qilganimni bilishi kerak edi...

– Salom!..

– Xush kelding, psixolog. Inshaalloh, xush kelding, chunki men va'damning ustida turibman.

– Xush keldim desak ham bo'ladi, ahvolingiz qanday?

– Yaxshiman, yaxshi. Balodan uzoq, umidga limmo-lim!

– Xursand bo'ldim. Yaxshi xabarlar berishni xohlardim, lekin shu on shundayki, – der ekanman, o'sha zahoti butunlay kayfiyati buzildi va gapimni bo'ldi.

– Yomon narsa aytma. Yolg'on gapir menga, lekin yomon narsa aytma. Yolvoraman, yomon narsa aytma! – dedi boshini oynaga egib.

– Yo'q-yo'q, yomon narsa yo'q. Kasalxonada asrab olishganida ismi va sharifi almashtirilibdi. Yangi ism va sharifini topdim. Shu on qidiruvda. Hatto, eski prokurorlardan bir amakim ham shu onda qidiruv olib boryapti.

– Yangiliklar bormi? Biror nima aytsang-chi, psixolog.

– Aslida, yaqinlashdim, desak ham bo'ladi. Bunday ism va sharifdagi insonlar qidirilmoqda.

– Topilmasa-chi, psixolog, unda nima bo'ladi?

– Topiladi, inshaalloh, umidsizlikka o'rin yo'q. Unutmang, nima degan edik? Umidga ketgan yo'lda umidsizlik yo'q!

– Psixolog, men va'damda turibman! Balodan uzoq yuribman. O'sha kuni duomni qildim. Yotdim, turdim. Uyg'onganimda yangi bir hayot boshladim. Menga yomon xabar olib kelma, iltimos. Yolg'on olib kel, mayli, lekin yomon xabar olib kelma.

– Yolg'on ham olib kelmayman, yomon ham. Bu ishning oxiri go'zal nihoya topadi. Mening bunga ishonchim komil.

– Men ham ishonishni xohlardim, lekin choramni qo'lingga topshirganman. Bilasanmi, psixolog? Nazarimda, men birinchi marta yashayotgandekman, chunki birinchi marta nafas olayotganimni his qilyapman.

– Bundan juda xursandman. Go'zal kunlar yaqin, sabrli bo'ling. Birgalikda kutamiz.

– Inshaalloh, psixolog, inshaalloh. Shu alfozda ziyoratga kelib, yangiliklardan xabardor qilib turasanmi?

– Albatta, lekin sizdan yana bir iltimosim bor, Hasrat xonim.

– Albatta. Sen men uchun harakat qilar ekansan, mendan nima istasang ista.

– Oyna bormi qamoqxonada?

– Ha, bor. Hech kimni qaragisi kelmasa ham burchakda turadi.

– Oynaga qarab, o'zingizga shularni aytishingizni xohlayman: men hayotda yashay olaman, uddalay olaman, chiday olaman, qanday to'siq bo'lsa ham oshib o'taman, chunki **UMID UCHUN BUNGA MAJBURMAN!**

– Kelishdik, psixolog. Birma-bir barchasini bajaraman, barchasini yuzimga aytaman!

– Aytgancha, Hasrat xonim, bundan tashqari sizni ko'zingiz yorigan vaqtda faoliyat yuritgan bosh shifokorni topdim. U ham yordam berdi, sog' bo'lsin. Sizni ham esladi.

– Allohga qasamki, men u kunlarga oid hech narsa eslay olmayman, lekin yordam bergan bo'lsa, sog' bo'lsin, inshaalloh.

– U ham betob. Kasalxonada yotibdi.

– Unga mening nomimdan bir gul jo'nata olasanmi, psixolog? Minnatdorchilik yuzasidan.


– Ikkimizning nomimizdan jo'nataman. Men ham shuni o'ylayotgandim.

– Rahmat, psixolog. Qo'lingdan kelganini qilganingga ishonchim komil. O'zingni hech ham qiynama, lekin shuni bilginki, yolg'onga roziman, yomonga emas.

– Arzimaydi. Kelishdik. Albatta, xavotir olmang, – deyishim bilan qo'riqchi kelib uchrashuv vaqti tugaganini xabar berdi.

– Ko'rishguncha, – deb telefonni qo'ydi. Qo'lini silkitdi menga o'sha oynaning, simlarning ortida qolgan va allaqachon egilgan chinor.

U yerdan chiqdim. Darhol gulchi tomon yo'l oldim va kular yuzli Emre amakiga Hasrat va mening nomimdan katta, go'zal moychechak guldastasi yubordim... Moychechak – umid, shunday emasmi, do'stim? “Sevadi-sevmaydi” qilib jonini olamiz u moychechakning, ammo baribir bizga umid beradi u... Jon olayotib umid olish naqadar noto'g'ri!





Kunlar shu tarzda o'tdi-ketdi. Men telefon oldida Burak amakidan xabar kutar ekanman, izlashda ham davom etayotgandim. Na ishim, na boshqasi, hech narsaning qizig'i yo'q edi. Faqatgina o'sha egilgan chinorning o'g'lini topishga harakat qilayotgandim, lekin hech narsaga erisha olmayotgandim. Boshida qanday yaxshi edi, shunday emasmi? Hammasi joyidadek edi, biroq joyida emas ekan. Men bor-yo'g'i yem otgan taqdir, mendan saqlashi kerak bo'lganini juda yaxshi muhofazalayotgandi.

Men esa "hasrat, umidsizlik yo'q", deb o'zim umidsizlikka tushgandek edim. Ruhimni egallab olgan qop-qora pechaklarni o'zimirdek his qilgan va qabul qilishga g'oyatda yaqinlashgan edim. Uzoqlashgan narsam esa topish umidi. UMIDni topishga umidim qolmayotgandi. Allohdan umid uzib bo'lmaydi, lekin inson tushkunlikka tushadi-da, qorong'ilikda nursiz qolgach, o'sha qorong'ilikning jirkanch yuziga moslashib ketadi...

O'zimga o'zim gapirishga o'rganib qolganim uchun oynaga qaradim va suhbatni boshladim:

"Ha, Efe, ba'zan yaxshi insonlar boshlaridan qo'rqinchli voqealarni kechirishlari mumkin va bu qalbni yaralaydi. Sababi nima deb so'rama, sababi oddiy. Chunki hayot adolatli emas.

O'zingni qorong'i kunda qolgandek his qilishing mumkin, lekin muammo bu emas, muammo o'sha qorong'ilikni qabul qilish.

Muammolar biz insonlar uchun. Yo'lingda muammolar chiqadi, albatta, ammo muammolar ichida o'zingni yo'qotib qo'ysang, uddalay olmaysan, rivojlana olmaysan. Xop, Efe, senga bir savol: "Shunday vaziyatda to'xtaysanmi? Aynan shu paytda to'xtashni o'ylayapsanmi? Sinish nuqtasi shumi? O'ylab ko'rishing kerak. Umidsizlik yo'liga tushganingda o'ylash uchun vaqting bor, demak! Agar yiqilganingda oyoqqa turmasang, yo'lingda davom etmasang, ostin-ustun bo'lasan, shuni o'yla. Hasrat nima bo'ladi? Va'da bergan eding, esingdan chiqdimi? O'zingga bergan va'dang nima bo'ladi?

"Nasiba niyatga bog'liqdir" romanini eslasang-chi, Efe. Niyati bilan nasibini qanday topgan edi-ya, undan sira voz kechmagandi!

Jasoratli bo'l va qadam tashla!" dedim va o'zimga keldim, do'stim. Yangi sahifani och-da, davom et. Hikoya endi boshlanyapti.

Oyoqqa turdim va jasorat bilan xonadan chiqdim. Soat 13.30 lar chamasi edi. Onam ham yaqinda uyg'ongan, shekilli. Naqd salondaligimda onamning oyoqda turganini ko'rdim.

– Xayrli kun, malikam!..

Meni birinchi ko'rganida taniyolmagandi. Oxirgi bir-ikki oyda bu holat ko'p takrorlana boshladi. Ba'zan umuman taniyolmaydi, o'zidan uzoqlashtirardi. Bu juda og'ir sinov. Mayli, shunisiga ham shukr. Esi ketib, xotirasi chatoq, lekin

ahvoli yaxshi, alhamdulillah. Yotib qolishdan Alloh asrasin, deb o'zimni ovutaman.

Javob bermay yuzimga besh daqiqacha qarab turgach:

– Xayrli kun, o'g'lim?

Eh do'stim, onang senga "O'g'lim" degandagi baxtni tasavvur qilolmaysan. Butun o'y-fikrlardan qutulib, yuzim kuldi. Demak, kechagiga qaraganda yoki avvalgi kunga qaraganda xotirasi bugun yaxshiroq, chunki meni esladi. Sarg'aygan ipak ro'molini yelkalaridan boshiga to'g'ri chiqarayotgan vaqtda yoniga o'tirdim va eriy boshlagan bo'g'imlar sababli zaif ko'ringan gavdasini mahkam quchdim.

– Qo'yib yubor meni, eshakcha.

– Onam meni!.. Sizni qo'yib yuborarmidim?!

– Nega uylanmaysan? Balki o'shanda qo'yib yuborarmiding.

– Aslo, onam, aslo!

Qiziquvchan ko'zlari bilan yaqinlashdi.

– Qani, so'rang, so'raydiganingizni.

– To'g'risini ayt, uylanyapsanmi?

– Yo'q oyi, sizdan go'zalrog'ini hali topa olmadim.

– Otangga ham aytgin buni o'g'lim, xo'pmi? Aytgancha, otang qayerda? Bu odam yana kech qoldi!

Otamning o'lganiga olti yil bo'lgan, lekin ahvol mana shunday, qara, bu holat uchun xafa bo'lolmaysan ham. Bilib qolmasin, deb darhol mavzuni o'zgartirdim. Uning fikrlariga qarab harakat qilishga majbursan!

– Otam Burak amaki bilan birga, oyijon, – dedim, – Prokuror bor edi-ku, o'sha.

– Kech kelar ekanmi yana?

– Bilmasam. Bilish uchun Burak amakiga qo'ng'iroq qilaman, oyijon.

– Meni biroz yotqizib qo'y, o'g'lim...

– Xo'p, malikam, keling, yotqizaman. Hatto, onajonimni quchoqlab birga yotaman.

Go'yo bir onda butun kuchi tugagandek gavdasini divanga tashlagach, bo'ynini urib oladi deb qo'rqdim. Biroz qo'limni uzatdim, ozgina yordam berdim...

Nozik badanini quchoqlaganda ham qo'rqayotgandim. Onangni bag'ringga bosganingda qo'rqish og'riqli, lekin yanada og'riqlisi onangni quchoqlay olmaslik, shukur.

Onamning shundoqqina yonida jimjitlikka mahkum holda, hayotning naqd o'rtasidan boshladim aytib berishni. Baribir hech narsani eshitmaydi, eshitsa ham tushunmaydi, tushunsa ham eslolmaydi. Hasrat Kurtulushning seans vaqtida menga aytib berganlarini, ichimda qolgan shisha parchalari tufayli qonagan tomchilarni sochishni boshladim. Yengillashgandek his qilayotgandim. Onam esa ba'zi narsalarga munosabat bildirayotgandek ko'zlarini bir ochib, bir yumayapti. Bir nimalar deyayotgandek edi. U yaxshi tinglovchi edi.

– Tug'rami?

Tabassum qildim. Go'yo ma'nili bir javob oladigandek tushuntirishda davom etdim onamga: "Ha, oyi, Tug'ra U. Eski bosh shifokor Emre amaki menga shu ismni berdi".

– U bizning sobiq ishchimizning o'g'li-ku?!

– Sobiq ishchimi? – deb so'radim, lekin onamni gapiga e'tibor bermasligim kerakligini bilardim. Xayoliy fikrlar-

ga to'lgandim yana, lekin mayli, eshitishim kerak edi oxirigacha.

– Ha, o'g'lim. Sen eslolmaysan, juda kichkina eding. Yigirma yil er-xotin bizga xizmat qilishdi. Ularning farzandining ismi ham Tug'ra edi. Familiyasi ham bir xil.

– Oyi, siz jiddiy aytyapsizmi? – deganimda butun yuzim o'zgargandi. Qiziquvchan bir holatga kirdim. Rostdan jiddiy edimi?!

– Yoshligingda ketdilar.

– Nega ketdilar oyi? Qayerga ketdilar? Rostdan ham ismi Tug'ramidi? Bolani asrab olishganmidi? Kasalmidi? Oyi esingizdami, biror nima desangiz-chi!

– Mening qornim ochdi, o'g'lim!

– Oyi, Xudo haqqi javob bering, iltimos.

– Nimani, qanaqa javob? Qornim och deyapman.

Darrov onamga g'amxo'rlik qiladigan jonkuyarimiz Fotima opani chaqirdim. Onamga taom tayyorlashi kerakligini aytdim va onamni Fotima opaga qoldirib chiqdim.

Ammo muzlagan bir ahvolda edim. Shokka tushgandim, lekin onamning kasali tufayli xotirasida yozgan ssenariy va birlashtirgan voqealariga ishona olmasdim!

Chunki u televizorda ko'rgan birorta serialini haqiqiy voqeadek menga so'zlab berardi yoki meni otam deb, Fotima opani onasi deb hisoblardi. Aslo ishonolmasdim! Taqdir menga yana o'yin qilayotgandi. Aqlim joyida emas, yana har xil fikrlarga berila boshladim, ammo miyamdan o'chirdim-da, otdim. O'shanda tushundimki, har xil xayollarga berilaman, darrov qochdim shu suhbat mavzusidan.

Otamning xonasiga kirdim yana. Telefonim jiringlamayotgandi. Yetar endi, bir narsalar qilishim kerak deb, Burak amakiga yana qo'ng'iroq qildim.

– Labbay.

– Burak amaki, ahvolingiz yaxshimi?

– Yaxshi, Efeginam, sen qandaysan?

– Men ham yaxshiman, rahmat.

– Ishning qay sur'atda ketayotganligiga qiziqyapsan, bilaman, lekin ishon, qo'limizdan kelganini qilyapmiz. Ma'lumotlarni topish uchun har tomonlama harakat qilyapmiz. Oz qoldi, sabr qilishing kerak. O'lik bo'lsa ham, tirik bo'lsa ham uni topamiz.

– Xo'p, Burak amaki, qiziqayotganim uchun qo'ng'iroq qilgandim. Bezovta qildim, aybga buyurmang.

– Aslo, bu nima deganing? Otangning o'g'lisan sen. Sabrsizsan, bilaman. Otang ham shunday edi, lekin bu ish uchun yana biroz sabr kerak. Qo'ng'irog'imni kut.

Shu paytda Burak amakidan qo'ng'iroq kelishini kutishdan boshqa choram yo'qdek ko'rinayotgandi. Naqadar yaqining bo'lsa-bo'lsin, chorangni menga o'xshab boshqa bir qo'lga topshirgan bo'lsang, kutishga majbursan!



Bir haftadan keyin

Yana bir uchrashuv bo'lib o'tgandi. Hasrat Kurtulushga "Natijada juda yaqinlashib qoldik"dan boshqa hech narsa deyolmagandim. U dialoglarni, ziyoratni senga aytib bermadim, chunki aytib beradigan hech narsa yo'q. Davomli tarzda gapni olib qochdim. Javoblardan tushunib qolgach, yana eng oxirgi gapi: "Yolg'on olib kel, yomon olib kelma", bo'ldi Hasratning!

Zaiflashayotgandim, ko'z o'ngimda eriyotgandim. Balki dardim emasdir, lekin o'zimniki deb bilgandim bu dardni. Foydam tegadi, hayotda ilk marotaba foydam tegardi.

Endi fikrim Burak amakining telefondagi gapiga aylan-di: "O'lik yoki tirik, uni, albatta, topaman".

Zoran, butun sarguzasht Burak amakining qo'ng'irog'i bilan boshlandi.

- Efe, qandaysan, bolam?
- Yaxshiman, Burak amaki, rahmat. Siz-chi?
- Men yaxshiman, sendan bir narsa so'ramoqchi edim.

Natijaga yaqinlashishga yaqinlashdik, hatto ayta olaman-ki, qidirayotgan odaming yashayapti. Endi faqat manzil kuryapman, lekin sendan so'raydigan bir narsa bor.

– Albatta, Burak amaki.

– Sen bu odamni bittasiga yordam berish uchun qidirypman deganding. To'g'rimi?

– Ha, to'g'ri. Nega?

– Xo'sh, gap shundaki, topgan ma'lumotlarimizda bir g'alatilik bor.

– Qanday g'alatilik?

– Ya'ni, sen menga bergan ism Tug'ra U., asrab olingan, betob bola bo'lgan...

– Ha, ha. To'g'ri.

– Bu bolaning ota-onasi sizlarning uyingizda, ya'ni otangning shirkatida yigirma yil ishlagan ekan, bolam.

– Qanday qilib? Onam to'g'ri...

– Ya'ni sug'urtalari, kasalxona nazoratlari, hatto yangi olgan uylarini ham otang olgan ekan, lekin keyinchalik sotishgan ekan. Endi faqat manzilni aniqlash qoldi.

– Onam to'g'ri aytgan ekan.

– Qanday qilib, nima onam?

– Onam menga yigirma yil yonimizda ishlashdi degandi, lekin men uni betobligi bois ssenariy tuzyapti, deb o'ylabman, Burak amaki.

– Yo'q, haqiqatan to'g'ri. Yoningizda ishlashgan ekan.

Hatto, bola uch-to'rt yoshdaligida ketishgan ekan. Faqat shunday bir haqiqat ham borki, bu bola aytganingdek kasal yoki asrab olinganga o'xshamaydi. Bunga oid hech qanday qayd yo'q. Shuningdek, u aytganingdek 30–32 chamasi emas, 27 yoshda.

– Qanday qilib, qanday qilib, yo'q? Ism-sharif bir xil. Yoshi o'zgargan bo'lishi mumkinmi, amaki? Yoshi ko'rsatilgandir. Bilmasam. Shu tobda hech narsaga tushunmadim.

– Allohga qasamki, hech qanday qayd yo'q, lekin tug'ruqqa doir kasalxona qaydlarini ham qaratyapman. Ammo o'sha vaqtga oid hech qanday ma'lumot, hech qanday arxiv yo'qligini aytishdi. Yoshini ham tasdiqlay olmayapmiz, lekin ko'ringani shu.

– Unda men yana kasalxonaga borib eski bosh shifokordan ma'lumot olishga harakat qilaman.

– Ha-ha. Bunisi yanada ishonchliroq bo'ladi.

– Xo'p, nega ishdan ketganlariga oid ma'lumot bormi, Burak amaki?

– Yo'q-yo'q, shunchaki maoshini olibdi va ketibdi. Sug'urtalari, PTT to'lovi, barchasini ko'zdan kechirtirdim. Hech qanday muammo yo'q. Da'vo yoki boshqa narsa ham yo'q.

– Tushundim. Xo'p, manzil qachon aniqlanadi?

– Bugun, shuni kutyapman. Men ana shu oila bilan bog'liq menga aytmagan biror siring bormi deb o'ylabman.

– Yo'q, Burak amaki. Shunchaki tasodif.

– Tasodif yo'q, bolam, taqdir, taqdir. Sen yordam berishni xohlading. Yordam beradiganing esa burningning tagida ekan. Ilohim, xohlaganingdek bo'lsin-da, inshaalloh, topgin, hal qilgin.

– Inshaalloh, lekin shu fursatda hayratdaman. Taqdir meni qayoqqa olib boryapti, bilmayman. Ichim cheksiz koinot bo'shlig'idek.

– Bu oddiy holat, bolam. Yomon joyi yo'q, demoqchiman. Sizlarning shirkatingizga aloqador ishchilar juda ko'p edi, vaqtida otang, joyi jannatda bo'lsin, insonlarga yordam berishni juda yaxshi ko'rardi. Bu yer juda katta shahar emas. Baham ko'rganingiz sari ko'paygan, ko'paygani sari tanilgan bir doirangiz bor sizning otang soyasida. Shuning uchun men ko'p ham hayratlanmadim, bo'lishi mumkin.

– Xo'p, rahmat, Burak amaki. Men sizdan xabar kutaman, – dedim va go'shakni qo'ydim...

Bu tuyg'u qog'ozga yozilgan holda qanday tushuntiriladi, bilmayman, do'stim, lekin o'sha paytda ancha yaqinlashganimni his qilishdan boshqa narsa xayolimda yo'q edi, yo'q! Men o'sha onda yo'q edim! G'oyib bo'lgandim go'yo.

Taqdir meni qayoqqa olib boryapti? Burak amaki to'g'ri aytdi. Ishchilarimiz g'oyatda ko'p edi. Otamning tanishlari ham juda bisyor edi. Yordam bergan insonlarining cheki yo'q edi. Bo'lishi mumkinmi, bo'lishi mumkin.

U yerdan chiqdim. Beparvo holda, bo'm-bo'sh ong bilan Emre amaki tomon yo'lga chiqdim. Emre amakiga gul

jo'natgandim. Yuzining kulishini yana bir bor ko'raman deb baxtli edim, lekin shu onda qidirayotgan savolimning javobi muhimroq edi. O'ylab qoldim, do'stim, savol bergan sari boshqa bir savolga duch kelayotgandim va bir savol boshqasidan qiyinroq edi!

Taqdirning jumbog'i qiyindir,

Bu jumboqda har savolning javobi yangi savol tug'diradi.





Emre amakining eshigini taqillatdim va ichkariga kirdim. Yana kular yuzi bilan qarshiladi meni do'mboq amaki. Qarshisiga cho'kkaladim, lekin shunday holatda edimki, darrov tushundi.

– Xush kelding. Xush kelding, bolam, yaxshimisan?

– Yaxshiman, Emre amaki, lekin bilishim kerak bo'lgan narsalar bor.

– Nima bo'ldi, tinchlikmi? Izlayotgan odamingni topa oldingmi?

– Yo'q, ya'ni ha, lekin to'liq emas. Mos kelmaydigan narsalar bor.

– Qo'limdan kelganicha, eslay olganimcha savollaringga javob beraman.

– Demak shunday: ism-sharif to'g'ri. Uni topdik desak ham bo'ladi, lekin tug'ilgan sanasi va kasallik qaydlari yoki asrab olinganligi haqidagi qaydlarga oid hech narsa topolmayapmiz.

– Ya'ni tug'ilgan sanasi aynan sen aytgan sana. Adash-yapman desam, lekin bu adashtiriladigan hodisa emas. Senga aytganimdek, onasini ham eslayman.

– Ha, lekin yoshi to'g'ri kelmayapti. Qaydlardagi yo-

shi – 27. Biz aytgan yil bilan orasida to'rt yil farq bor. Emre amaki, men bu muammoni hal qila olmadim. Topgan odamimizning hech qanday kasalxona qaydi yo'q. Kasalligi va asrab olinganligi haqida davlat hujjatlarida hech qayerda qayd qilinmagan.

– Tushundim, bolam. Ammo qasam ichaman, bu ma'lumotlardan boshqa hech narsa bilmayman, eslolmayman. Aytganimdek, o'sha odam o'sha ismda ekanligiga yuz foiz ishonchim komil.

– Xo'p, Emre amaki. Bezovta qildim sizni, uzr so'rayman. Hayajon va stress bilan kelib, savolga ko'mib tashlaganim uchun.

– Yo'g'-e, muammo yo'q. Koshki, topishing uchun qo'limdan keladiganidan ortig'ini qila olsam.

– Ko'p yordam berdingiz. Bu ma'lumotlar bo'lmasa, aslo oldinga siljiy olmasdim. Allohga shukr.

– Xo'p, bolam. Darrov ketyapsanmi? Bir finjon qahva ichgin-da, o'zingga kel.

– Ha. Bir stakan suv ham ichishim kerak, juda terladim, Emre amaki.

– Qara, shu yerda suv bor. Hoziroq uni isitgichga qo'y. O'zingga bir finjon qahva damla, bir stakan suv ham ol. Tinchlan, bolam. Bunday shoshqaloqlik bilan ish bitmaydi.

Bir qahva tanaffusi edi bu, do'stim. Sen ham o'zingga bir qahva va bir suv ol, davom etaylik...

Unutmaginki, suv – hayotdir.





Kasalxonadan chiqar-chiqmas Burak amakiga qo'ng'iroq qildim.

– Burak amaki, salom. Men kasalxonaga kelib uchrashdim. Ma'lumotlar avvalgisi bilan bir xil. Hech narsa o'zgarmadi. Va bu yerdagi sobiq bosh shifokor u ekanligiga mutlaqo ishonchi komil.

– Vallohi, men bu ishdan hech narsani tushunmadim. Hozirgina manzilni olish uchun qayta qo'ng'iroq qildim. Manzilni kutypman. Manzili kelsin, birga boramiz xohlasang yoki o'zing bor. Nima desang shu, bu masala o'sha joyda hal bo'ladi, shekilli.

– Ha-ha, Burak amaki. Manzilni olishim bilan yo'lga chiqaman. Siz ovora bo'lmang.

– Kelishdik. Ovorasi yo'q, yordam kerak bo'lsa, boriшим mumkin.

– Yo'q-yo'q, shart emas. Yolg'iz borib, hal qilaman.

– Yaxshi, – deb go'shakni qo'ydik, do'stim. Besh daqiqadan so'ng mashinaga o'tirib, yo'lga chiqishim bilan yana telefonim jiringladi.

– Efe, manzil keldi. Telefon raqamingga xabarnoma tarzida jo'natdim.

– Qoyil, juda xursand bo'ldim. Hoziroq qarayman.

– Xo'p. Borishimni xohlasang...

– Yo'q-yo'q, Burak amaki, o'zim hal qilaman.

– Yaxshi, ehtiyot bo'l.

– Katta rahmat. Sizga qo'ng'iroq qilaman, Burak amaki.

Manzilga qaradim, do'stim. Oramizda 100–120 km.-lik masofa bo'lgan shahar tashqarisidagi bir qishloq manzili edi u.





Qishloq manzili va otasining ismini olgandim. Tug'raning ismi ham bor edi. Xayrlisi bo'lsin deb yo'lga chiqdim. Ko'rgan filmlarimda shunday yo'llar bo'lardi. Bo'sh, sokin va oxiri ko'rinmas. Shunday yo'l edi bu yo'l. Va o'sha yo'lda davom etgan qahramonlar bo'lardi. Qayerga borishini bilmay, bir mehmonxonada tunab, tunagan joyida qolgan. Xuddi shunday his qilayotgandim o'zimni. Maqsadim bor edi-yu, lekin maqsadsizdek edim, do'stim. Ishonasanmi, shu ikki-uch haftada hayotim davomida meni yo'qlagan, meni izdan chiqargan xurujlarimdan asar ham qolmagandi. Taqdir meni qayerga olib boryapti bilmayman, lekin ahvolim yaxshi edi, yaxshi. Go'yoki Hasratga darmon bo'laman deb, butun muammolarimdan qutulgandim. O'sha seans menga yordam bergandi.

Qishloqqa borganimda, tasavvurimdagidan zamona-viyroq bir joyga kelganimni angladim. Kun kech bo'lgandi. Yo'llar tor bo'lgani uchun, odatda, bir-bir yarim soat davom etadigan yo'lni uch soatda bosib o'tdim.

Qishloq markazida xuddi italyan restoranlariga o'xshash bir qahvaxona topdim. Ichkariga kirdim, ammo u yerda hech kim yo'q edi. Keyin qarasam, qaynab turgan samovarning yonida namoz o'qiyotgan qari kishi bor ekan. Ovozimni chiqarmay kutdim.

Namozi tugaganda menga qaradi:

– Assalomu alaykum, musofir.

– Va alaykum assalom.

– Nima ichasan, nima xohlaysan? Ayta qol.

– Choyingizni ichmoqchiman.

Choy olib keldi.

– Bu yerlik emassan. Yo'ling tushdimi?

– Yo'q. Bittasini qidirapman.

– Tinchlikmi, nima uchun, kimni qidirapsan?

– Tug'ra U.

– Moviy ko'z Tug'ra!

– Shunday deyishadimi?

– Ha. Bizning rahmatli Ahmadning o'g'li-da, nima uchun qidirayotgan eding?

– Ota-onasi bizning eski ishchilarimizdan edi. Bir ko'rgim kelgandi.

– Tushundim, sen Umar beyning o'g'li-san. Otang o'z vaqtida bu yerga ko'p yordam qilgan. Yo'lni ta'riflab bera qolay unda.

Kulimsiradim. Yo'l ta'rifini tingladim. Yurishni boshladim. Yurib ketayotganimda butun devorlar ustimga qulab tushayotgandek bo'ldi go'yo. Besh-olti daqiqa yurgandan keyin uyga yetib bordim. Eshik oldida turib qoldim.

Nima deyman? Qanday qilib aytilardi? Sening oilang aslida bu emas, ota-onang emas bular, deb qanday aytiladi? Ishon, do'stim, oson emas. Har doimgidek bo'rttirapsan,

deyishingiz mumkin. Ammo bu haqiqat. Balki bilar, balki aytishgandir. Ota-onasidan voz kechsin demayapman-ku, to'g'rimi, to'g'rimi, to'g'rimi?

Eshikni jiringlatdim.

– Tug'ra U.

– Ha?

– Men, Efe T. Siz oldin ishlagan...

– Ha, ha. Bilaman. Sizni tanidim.

– Qanday qilib?

– Ism-sharifingdan-da. Otam va onam ko'p aytib berishardi.

– Tushundim.

– Tinchlikmi o'zi, nega kelganingizni tushunmadim.

– Tushuntirib beraman.

– Ichkariga kiring, sovuqda turmang.

– Rahmat.

Ichkariga kirganimda moviy ko'z Tug'ra U.ning oilasi va kichik bir qizi borligini ko'rdim. Uylanibdi, farzandli bo'libdi. Qanday qilib aytaman, bilmayman.

– O'tiring, Efe aka, shu yerga o'ting. Nima ichasiz?

– Bo'lsa choyingni ichaman. Yo'q bo'lsa, suv ham ichaveraman.

– Qorningiz ochmi, aka?

– Yo'q-yo'q, och emas.

– Otangdan ayrilibsizlar, Alloh sabr bersin.

– Sog' bo'ling, aka. Onam va otam bir oy farq bilan birin-ketin vafot etdi.

– Afsusdaman.

– Qo'limizdan nima ham kelardi. O'lim bizning taqdirimiz, aka.

– Shunday.

– Nega kelgandingiz? Sababini aytib beraman degandingiz. Biroz g'alati bo'ldi bunday kelishingiz.

– Ha, g'alati bo'ldi, lekin yaxshi bo'ldi.

– Bemalol, aka, rostdan kutypman.

– Bir so'raydigan savolim bor, lekin buning yo'li bormi-yo'qmi, qanday qilib aytaman senga, bilmayman Tug'ra.

– So'rang aka. Savol bo'lsa, kuttirmaylik.

– Bu savol biroz hamiyatingga tegishi mumkin. Noto'g'ri tushunishing ham mumkin.

– Yo'q, aka, siz so'rang. Vallohi, shu tobda kutish qiyinroq bo'lyapti, chunki rostdan ham kutilmagan hol.

– Yolg'iz qolsak bo'ladimi?

– Albatta. Choyingizni oling, orqa bog'ga chiqamiz.

Bog'ga chiqdik, o'tirdik, lekin go'yo vaqtdan yutishga harakat qilayotgandek ahvolda edim. Gapni olib qochaverdim. Suvdan foydalansam bo'ladimi, qo'l-oyog'imni yuvib olay kabi...

– Aka, so'ray qoling endi.

– Ota-onang seni asrab olgan bo'lishi mumkinmi?

– Bu qanaqa savol bo'ldi, nima deyapsiz!

– Aytgandim-ku, noto'g'ri tushunishing mumkin deb!

– Yo'g'-e.

– Yo'q-yo'q, unday emas.

– Unday emas deganingiz nimasi? Ota-onangiz aytib berishmaganmi sizga?

– Nimani aytib berishi kerak edi?

– Akamning olamdan o'tganini!

– Tushunmadim. Akangning vafoti bilan buning nima daxli bor?

– Akam men tug'ilganimda olamdan o'tgan ekan. Shuning uchun ismimiz bir xil!

Do'stim, shu gapdan keyingisi yodimda yo'q!

Ko'z oldim qorong'ilashib ketdi!!!

Hushimdan ketibman. Tez yordam yo'qligi uchun qishloq shifokorini chaqiribdilar.

O'zimga kelganimda bilagimdagi tomirga tomchi dori yuborilyapti, nima bo'lganini idrok etmagan ko'zlar orqali atrofga qarayotgandim.

Ko'zim Tug'raga tushar-tushmas: "Jiddiy aytdingmi?" – deya so'radim undan.

– Ha, aka, jiddiy aytdim, siz avval o'zingizga kelib oling, Xudo haqqi. Sizdan ayrilib qoldik deb o'yladim.

– Endi nima deyman? – deya o'kirib yig'lashni boshladim. Shifokorning ovozi qulog'imda jarangladi: "Odekolon olib kelinglar! Odekolon yo'qmi?"

Xullas, do'stim, besh-o'n daqiqadan keyin o'zimga kel-

dim. Yig'lashim to'xtadi. Miyamda o'sha savol. "Endi Hasratga nima deyman?"

O'rnimdan turdim va Tug'raga:

– Akangning qabri qayerda? Bu qanday sodir bo'lgan? Menga aytib ber! – dedim.

– Qishloqda, shu yerga ko'milgan akam. Olib borib ko'rsataman sizga, ishonmayotgan bo'lsangiz!

– Yo'q-yo'q, ishonmayapman emas, lekin men uni sen deb o'ylaganim uchun hayratdaman.

– Siz o'zingizga kelib oling, tong otsin, hozir uxlang. Xotirjam bo'lib oling, borib ko'ramiz qabrni. Akam olamdan o'tgani uchun, oilam ishdan bo'shagan ekan.

– Nega, buning nima daxli bor? Tushunmadim.

– Bilmayman. Hech qachon buni aytishmagan, lekin akam olamdan o'tganida bo'shagan ekanlar. Shundan so'ng hatto qo'ng'iroq ham qilmabmiz, hol-ahvol so'ramabmiz ham. Hozir o'ttiz yil deyapsiz, mana o'ttiz yildan keyin siz keldingiz. Boshqa hech narsani bilmayman.

Tushunmadim, akang nima sababli olamdan o'tgan ekan?

– Bemor ekan. Asrab olingan ham aynan u. Olinganida bemor ekan, hech tuzalmagan ekan. Boshqa hech narsani bilmayman. Ota-onam bu mavzuda ko'p ham suhbatlashishmasdi. Doim o'zlarini aybdor his qilardilar.

– Tushundim. Sening ismingni ham akangni yashatish uchun... – deyishim bilan yana yig'lashni boshladim. Rasman shokka tushgandim.

Men uchun yotoq hozirlab berdilar, u yerga yotdim. "Endi nima deyman", deya alahsirab-alahsirab, yig'lab-yig'lab hushimdan kerib qolibman.

Tongda uyg'onishim bilan ilk ishim qabristonga borish bo'ldi. Haqiqatan ham qabr toshi, to'g'rirog'i qabriston tax-tachasiga katta qilib "T.U." yozilgandi.

Bola qabri ekanligi, juda eski va hech qachon xabar olinmaganligi, qaralmaganligi yaqqol namoyon edi. Tashlandiq bir joyda, tuprog'i ichiga cho'kkan bir qabr. Butun o'zligimni o'sha qabrga qo'ydim! Ta'rifi yo'q, bu chorasizlikning ta'rifi yo'q. Do'stim, qanday ta'riflab bersam ekan? O'zingni mening o'rnimga qo'yib ko'rgin-a, bir lahza tushunishga harakat qil. Qanday qilib aytaman!



Miyamda faqat bir savol: "QANDAY QILIB AYTA-MAN!.."

Tug'ra bilan gaplashgandan keyin endi hammasi oydin-lashgandi. Hasratning o'g'li Tug'ra o'lgan, keyin esa uch-ro'rt yildan so'ng tug'ilgan farzandlariga xuddi shu ism berilgandi.

Umid ismidan asar ham qolmagandi!


Burak amakiga qo'ng'iroq qildim. Vaziyatni yetkazdim. U ham: "Alloh sabr bersin", dedi va bu masalaga nuqta qo'ydi. Natijada, barcha uchun oddiy bir o'lim edi bu. Igna bilan quduq qazidik, quduqdan esa bir o'lik chiqdi. Xo'sh, endi Hasratga nima deyman, qanday qilib aytaman? Aytib berolmasdim, hozir mavridi emasdi. Kerak bo'lsa, yolg'on gapirishim kerak. Nima degandi Hasrat? Yomon xabar olib kelma, yolg'on olib kel, lekin yomon xabar olib kelma.

Uyga qaytdim.

Reja tuzdim.

Aytib bermoqchimasdim. Aslida aytib bermoqchi edim, lekin hozir emas, hozir emas. Chiqishiga taxminan bir oy muddat qolgan ekan. Kutishim, bir muddat sabr qilishim, chiqqunicha aytmaligim kerak edi.

Har holda bu natija bilan bog'liq yolg'on gapira ol-masdim, lekin kechiktira olardim. Yaxshi niyarda shunday o'yladim, do'stim. Menimcha, haqli edim ham. O'sha payt-dagi ruhiy holatimga ko'ra bu eng to'g'ri qarordek tuyil-di. Bundan tashqari, hatto eng yomon qaror bo'lsa ham, qarorsizlikdan ko'ra yaxshiroq edi!





Yomon qaror qabul qildim deb
o'ylayotgan bo'lsang, xato qilibsan
demak, ammo agar qarorsiz qolgan
bo'lsang, katta xato qilyapsan demak.





Bir oydan so'ng

O'tgan bir oy ichida onam yaxshigina unutib qo'yadigan bo'ldi. Butkul kasallikka taslim bo'ldi. Oldinlari ora-sira bo'lsa ham bolaligimga oid, eski narsalarni eslardi. Otamni so'rardi. Uy ishlarini eslardi. Ammo endi tamoman o'z bolaligiga qaytdi. Ora-sira ota-onasini so'raydi, uy ichida aka-ukalarini qidiradi. Bu juda og'ir bir imtihon. Ko'z o'ngingda butkul aqldan ozishi, unutadigan bo'lib qolishi, seni eslay olmasligi, o'limini kutayotgandek yashashi tom ma'noda bag'rimni o'rtayapti!

Bu og'ir imtihon bilan birgalikda, har kuni, har soatda, har daqiqada o'zimga beradigan bir savolim bor: "Qanday qilib aytaman?" Hali ham javobini topa olmagandim. Hasratning har uchrashuv kuniga bordim. Har safar: "Yaqinlashdim, oz qoldi... Chet elda, oz qoldi... Topyapmiz, oz qoldi... Sen chiqquningcha mutlaqo topgan bo'laman, oz qoldi, oz qoldi, oz qoldi..."

Bu orada 11 kg.ga ozgandim. Hech qaysi ko'ylagim to'g'ri kelmayotgandi endi. Rasmana quriy boshladim. Onamni o'ylab, Hasratga qanday qilib aytishimni o'ylab ovqat yeyolmaydigan ahvolga tushgandim.

Hasratmi?

Bir oy hech qanday muammo chiqarmasdan kutdi va ertaga uning chiqish kuni. Qabristonga olib boraman uni. Tug'raning qabrini qaratdim, do'stim. Gullar ekdim. Balki ko'rsa xursand bo'lar, dedim. Bir umid-da bu ham. Aslida o'limning chiroylisi bo'larmidi, bo'lmaydi. Ayniqsa, bir onaning farzandi bo'lsa, ayniqsa, farzandini bir marotaba ham bag'riga bosa olmagan ona bo'lsa. Hamma ham bu yukni ko'tarib yurolmaydi, ishonchim komil. Hasratning yonida suyanchiq bo'lib turaman.

Hasrat uchun bir uy ijaraga oldim. Bizning ko'shkka yaqin. O'sha yerga joylashtiraman. Hech kimi yo'q uning. Bu ham bir kutilmagan sovg'a unga, lekin farzandini yo'qotgan ona uchun dunyo moli umid bo'lganmi hech?

Hasrat umidini yo'qotdi va xayolimda o'sha mehribonlik uyidagi gapirgan odamning ovozi: "Unga qarashing mumkin, uni himoya qilishing mumkin, lekin umidini o'g'irlading!" Haqli edi degandim, esingdami? Va u haqli chiqdi. Eng og'riqlisi ham shu, haqli. Men yo'q joydan quruq umid berdim.





Hasratni qamoqxonadan chiqishda kutdim. Chiqqanida rasmona quyoshdek charaqlayotgandi. O'sha ilk ko'rganim Hasrat qayerda-yu, hozirgisi qayerda? Yer bilan osmondek farqi bor edi. Faqat so'nishiga oz qolgan bir quyosh edi u. Qanday aytishimni hali ham topa olmagandim!

Quchoqlashdik, kulishdik, lekin u kulishda og'riq bor edi. Meni boshdan oyoq ko'zdan kechirgan ko'zlarda bir xavotir bor edi. Baribir juda go'zal edi, juda. Quyoshning o'sha porlagan nuri ostida menga qaragan va quyoshdan ham go'zal porlagan bir ayolning tabassumi. Yonimga keldi va yanog'imdan o'pdi. O'sha o'pich, butun sa'y-harakatlarimga, boshimdan kechirgan barcha og'riqlarimga arzirdi, lekin endi boshlayotgandi haqiqiy UMIDSIZLIK!

Ha, Hasrat qamoqxonadan chiqqandi, lekin men o'z ichimga qamoqqa kirgandim. Qanday qilib ayta olardim?



Sevgan qo'shig'imning so'zi:

Istar-istamas tilimning uchiga kelar,

fikrimning osmoniga tutunganlar

Dedi mahorat qayerdadir,

dedim mahorat to'g'ri so'zdadir

Istar-istamas ichimni kemirar,

dudoqlarimdan chiqolmaganlar

Quyoshni qanday yopasan?

Qum hovuchda turmas, o'rgan!

Quchoqlashdik, do'stim. Aynan o'sha payt Hasrat gapirishni boshladi.

“Ichkarida nega yonimda ekanligingni o'yladim hami-sha. Bunday yomon odamni yonida bo'lishni xohlagan yaxshi bir inson, nega? To'g'ri bo'lmaganning yonida bo'lgan to'g'ri inson, nega bunday bo'ladi? Himoya qiluvchi tuyg'usi bor dedim, boshida yaxshilik qilishni xohlayapti dedim, lekin unday emas, angladim. Mening ichimdagi yaxshilikni ko'rdi u, dedim. Mening yonimda bo'lishni xohlayapti, chunki qalbimni ko'rdi u. Hatto, o'zim ham ko'rolmagan, his qilolmagan qalbimni. Yomonlik bilan, qorong'ilik bilan o'ralgan bir ayol. Ishonadigan hech kimi yo'q. Sadoqatning, sevgining yoki hayotning borligiga ishonmagan bir ayol. Men sen bilan tanishgunimga qadar hayotga doir

hech qanday umidim yo'q edi va yashashni xohlamayotgandim. Jonimga qasd ustiga qasd qilayotgandim. Sen esa bir kuni kirib kelib, menga umid bo'lding! Faqat o'sha kuni emas, har kuni. Dunyo men qo'rqqandek yomon joy emasligini ko'rsatishni xohlading. Sen qorong'ilikning ichidagi nursan, psixolog. Boshqa yo'l bo'lishi mumkinligining jonli isbotisan. Hayotning menga o'xshaganlar uchun ham yaxshiligini, insonlarning mehribonligini, orzu qilish mumkinligini isbotlagan haqiqiy insonsan! Men uchun shu darajada harakat qildingki, mening dunyo haqida yanglish fikrda ekanimni fosh qilding. Menga yaxshilik qilib, mening ichimdagi yaxshilikni qutqarishni niyat qilding. Rahmat senga. Men bir kun kelib bu eshikdan chiqaman deb ham o'ylamasdim. Chiqsam ham, tobutda chiqaman, deb o'ylardim.

Zaiflashganingdan tushundim,

Qarashlaringdan tushundim,

Hislaringdan tushundim,

Ovozingdan tushundim,

Harakatlaringdan tushundim,

Bilaman!

Balki shunisi yaxshidir, yomon olib kelmadi, deyapman. Eshikdan qadam tashladim deyapman. O'lik bo'lsa ham, joyini bilishni xohlayman. Shu menga kifoya", – deganida allaqachon ko'zimdan yosh dumalayotgandi. Tushundi. Balki allaqachon tushunib bo'lgandi. Ichim xotirjam bo'ldi, lekin men xotirjam emasdim.



Aslida yaxshi narsa bo'lgandi, do'stim. Men aytmasimdan o'zi allaqachon tushunibdi. Men o'zimni o'qqa-cho'qqa urayotgandim, u esa tushunibdi, men esa uning tushunganini tushunmabman!

Mashinaga o'tirdik va yo'lga chiqdik. Hech nimani gaplashmayotgandik. Muzlab qolgandek edik ikkimiz ham. Daqiqalar o'tganiga qaramasdan hech qanday ovoz yo'q!

Va bir ovoz.

– Yo'qotganimni bilganimda, seni bunday nochor holda ko'rganimda ikki tomonlama yondim, bilasanmi, Efe?

– Tushunmadim.

– Tushunishing kerak. Men farzandimni aslo ko'rmadim, lekin sen menga umid bo'lding. Farzandim uchun yonar ekanman, umidim bo'lgan insonning bu tarzda ezilishiga ham kuydim. Dunyo ko'pincha beshafqat va oxirida qahramonlarning g'alaba qozonishi bizning qo'limizda emas.

– Bunga ishonganlar, ishonchingiz komil bo'lsinki, adashadilar.

– Adashaypman, deb o'ylamayman. Natijada, qara, o'lim bilan yuzma-yuzman. Meni qabristonga olib ketayotganingni bilmaydi deb o'ylaysanmi? O'sha qabristonga bormasdan oldin ichkarida ko'z yoshi to'kmadim, o'zimni unga tayyorlamadim deb o'ylaysanmi? Yomonlarning haqli ekanliklarini ko'rsatish uchun katta bir sabab bu, menimcha.

Tom ma'noda muzlab qolgandim. Og'rig'i allaqachon og'rig'im bo'lgandi, lekin umid beradigan gaplarni aytishim kerakligini ham allaqachon angladim deb turganimda

aqlimda bir ovoz: "Sen unga yaxshilik qilding. Balki ichkaridan umuman chiqa olmasdi. Endi yarim qolsa ham, o'z ichida yaxshi bir hayoti bo'ladi va sen u uchun buni ta'minlaysan, dedi.

Javob berdim, do'stim.

– Lekin qarang, chiqolmayman degan joyingizdan chiqdingiz. O'lish uchun joningizga qasd qilganingiz ustiga qasd qilgan joyingizdan chiqdingiz.

– Ha, sening yordaming bilan, – dedi va yig'ladi. Boshini bir burchakka qo'ydi va yosh boladek yig'ladi. Men mashina haydab ketayotib ko'z yoshimni bildirmaslik uchun oz-oz ich-ichimdan ko'z yoshi to'kdim.



Qon bog'i insonlarni qarindosh qiladi,
oila qilgan esa jon bog'idir!





Qabrning boshiga keldik. Men qabrga kelishni bilaman, balki Hasrat bilmaydi. Hayotiga qaraganimda, eshitishimcha, qabr ko'rmagandek tuyiladi, lekin ichi qabristondan bartar.

Men bu hisni bilaman. Masalan, otam, buvim, buvam...

Insonlarga shu darajada chuqur bog'lanib qolamizki, bir onda yo'q bo'lganlarida dunyo boshimizga yiqiladi, lekin Hasrat hatto uni tanimasdi. Shunday his qilarmidi, bilmasdim. Bu hisni takror yashash og'ir, lekin yashaymiz. Har inson yashaydi!

Menga qaradi va dedi: "Sen uning o'limi bilan meni qutqarding. Umid o'ldi, ammo meni umidlantirding. Uning o'limi menga baribir umid bo'ldi, ichkaridan chiqdim. Shunday deb o'yla va xafa bo'lma".

– Xafa bo'lmaslik qo'limda emas, ammo o'ylaganimdan ko'ra kuchliroqsiz yoki kuchli ko'rinishni xohlayapsiz.

– Kuchlimanmi-yo'qmi bilmayman, lekin hissiz qoldim. Ichkarida yig'lash oson edi, bu yerda haqiqatda so'zsiz qoldim.

– O'zingizni qo'yib yuboring, yig'lang. Birga yig'laylik, – degan paytimda yerga, tizzalarining ustiga cho'kdi. Qabr toshini bag'riga bosdi, ho'ng-ho'ng yig'ladi. U yig'ladi, men yig'ladim. U yig'ladi, men yig'ladim.

O'sha daqiqani tushuntirishga kalimalar yetmaydi. Ko'zlaringni yum va bir daqiqa o'yla, u yig'ladi va men yig'ladim!

Mashinaga yig'lab qaytdi va shunday dedi:

– Bilasanmi, psixolog, ichkaridaligimda bittasi menga, bir insonning xotirasini himoya qilishning eng yaxshi yo'li u bilan bog'liq xotiralardir, degandi. Mening esa o'g'lim bilan bog'liq bir dona ham xotiram yo'q! Xotirasini qanday yashataman endi?

– Nimalar his qilayotganingizni bilaman, men bu tuyg'uni otamning o'limida yashadim. Shuni bilingki, hech narsa og'rig'ingizni qoldirmaydi, lekin oxir-oqibatda, nima bo'lgan taqdirda ham, o'sha tuyg'u va o'sha og'riq bilan yashashga o'rganasiz, yomon tushlar ko'rasiz, hatto har kuni uyg'onganingizda xayolingizga kelgan ilk narsa shu bo'ladi.

– Bu so'zlar tasalli emas, psixolog, tasalli emas...

Jim bo'ldim, haqli edi. O'limga hech narsa tasalli berolmasdi!



Vidolashuv vaqti:

Qisqa va lo'nda aytaman. Zotan, hikoyani tushunganingcha tushunding. Men umid bo'ldim, lekin umidsizlik yo'lidagi umid, umid qotili bo'lgan umid!

Qabristondan chiqdik. Hasrat uchun ijaraga olgan uyimga ketdik. Hasrat uchun yangi bir hayot boshlandi. Balki boshlanmasdan tugadi. Bilmayman!

Meni so'rasang, men asta-sekin o'zimga keldim. Onam bilan Hasrat o'rtasida bo'zchining makkisidek qatnadim.

Hasrat yarim hayotni yashayotganida men chorak hayotni yashadim. Onamning ahvoli anchagina yomonlashdi, hech nimani esolmaydigan holga keldi. Ora-sira onasini so'raydi, ora-sira bolaligiga doir narsalar haqida gapirib, buvasini so'raydi yoki baqqoldan olgan ichimligini xohlaydi. Varrak uchirishni xohlaydi, ko'zlari esa o'lishni!

Hasrat esa uydan chiqishni xohlamayotgandi. Uni uydan chiqarish uchun turib olganimda insonlarning unga qarashidan uyalayotganini, chiqishni xohlamayotganini aytardi.

Hasratga shunday dedim:

– Bu hayotda har bir xohlaganimizga erisha olmaymiz, tanlab, oqibatiga rozi bo'lishimiz kerak. Menimcha, yaxshi ish qildik, sizni ichkaridan chiqardik, yangi bir hayotni ya-

shayapsiz. Yana shuni ayta olamanki, insonlarning sizga qarashiga ko'z yumish, haqiqatan ham oson emas, ishonchim komil. Ammo mening qarashlarim sizga biroz bo'lsa ham tasalli bermayaptimi?

Hasrat "yo'q" dedi, aslida demadi, lekin qanday yashashi kerakligi haqida o'zi bir qarorga kelishni xohlayotganini aytdi. U uchun ijaraga olgan hayot doirasida o'zini qulflagan bir hayot yashayapti. Bir kuni menga shunday dedi:

– Ichimdagi bu his bilan ko'p yashay olmayman, hech kim yashay olmaydi. Qalbim o'ttiz yil avval qochdi-ketdi. Yaralangan bir hayvon misoli qir-adirlar tomon qochdi, podasidan yetarlicha uzoqlashib, oxirgi nafasini berish uchun. Va bir kuni sen kelding, menga yashash uchun bir sabab berding. Hozir o'ylab qarasam, yashamoq aslida bu: azoblanish ekan. Ichkaridaligimda bir kitobda o'qigandim: farzand azobi chekilishi mumkin bo'lgan eng katta azobdir, deb yozilgandi unda. Endi tushunyapman. Lekin baribir og'rig'imni yashay olmayapman.

Jim qoldim, ichimga yutdim, tosholmayapman. Haqli edi...

Sevganlarimizning yonida bo'lib, ularning qo'llarini qo'yib yubormasak, ularning dardiga darmon bo'lishimiz mumkin.

Xullas, do'stim, meni so'rasang, ahvolim yaxshi emasdi, ikki tomonlama bor-kel, bor-kel... Qo'limdan kelganining eng yaxshisini qilishga harakat qilayotgandim, lekin qo'lim yaxshi emasdi. Hayot qimorida qo'lim yaxshi (omadli) emasdi, bor-yo'g'i shu. G'amxo'rlik qilishdan boshqa yana nima ham qila olardim. Kichkinagina qo'llarim bilan dunyoni o'zgartira olmasdim!

O'zimdanda voz kechish kerak bo'lsa, kechdim, kechayapman ham, lekin o'xshamayapti. Mana, bor-yo'g'i shu, oxiriga yaqinlashdim. Baxtli yakun deganimiz aynan mana shu. Umidsiz, baxtsiz!

Umid berdim, umid yo'q bo'ldi, umid bo'ldim, men yo'q bo'ldim, yomg'irdan keyin kelgan tuproq ifori ham yo'q bo'ldi, his-tuyg'u deb barchasi yo'q bo'ldi...

Hayot bir maromda davom etar ekan, oradan ikki oy o'tdi va onamning ahvoli anchagina yomonlashdi. Endi vujudining nochorligi va a'zolarining betoblighi sabab o'limni kutayotgandi, men esa o'lishini...

Achchiq hayot deyman-ku, hayot achchiq emasmi!

Hayotda ikki xil og'riq bor: azobli og'riq va insonni o'zgartiradigan og'riq. Hayotda ilk marotaba bunday azobli og'riq bilan yuzlashayotgandim, ichim yonib, qalbim parchalanayotgandi.

Shunaqasi ham bo'ladimi deysan, bo'lmayapti-da, do'stim, bo'lmayapti. Nima bo'lishi kerak edi? Nima kutayotgandim, ya'ni nima deb o'ylayotgandim? O'lim bilan baxtli yakun bo'larmidi? Hasrat, eh Hasrat... Nimalarni boshidan o'tkazmadi, tuzalar dedim, tuzalmadi. Barchasi o'tdi, o'limlar, joniga qasd qilishlar o'tdi, lekin men bergan umid bilan yo'q bo'ldi. O'q og'zimga yaqinlashgan bir holda bitadi deysan, bitmaydi, bo'ladi deysan, bo'lmaydi, do'stim, bo'lmaydi. O'q og'izda, lekin ota olmaysan, mana shunday qolasan!

Yetar deysan, lekin yetmaydi, hayot to'xtamay otadi. Aslida Hasrat o'sha qabr boshiga kelganida bu hayot men uchun bitgandek edi. Uni qamoqxonada ko'rgan ilk kunim o'sha holidan battar edi. Qani, dedim, takror oyoqqa tur,

yana bir marta sinab ko'r... Yana bo'ladi, sinab ko'r, dedim, kiyindim-yasandim, lekin bo'lmadi, to'g'ri kelmadi, yarashmadi menga baxt. Umid ko'ylagi menga juda katta keldi, menga to'g'ri kelmadi!

Endi onamning o'lim xabarini kutar ekanman, ziyoratchilar kelib-ketar ekan, kichik bo'lsa ham bir umidim bor ekan, hammasi shunday bitadi, deb turgan ekan!

Amakivachcham ziyorat qilib kelganida, onam amakivachchamning kichik o'g'lini "Umid" deb chaqirdi. "Ona, nima deyapsiz?" dedim. Onam: "Mening o'g'lim Umid, sen emassan. Umidimni menga bering, uning ismi endi Efe bo'lsin", deganida...

U yog'ini tasavvur qil, do'stim, ayrim daqiqalar tasvirlanmaydi, boshdan kechiriladi deyishadi-ku, xuddi shunday. Ko'zlaringni yum va o'sha holatimni tasavvur qil, o'sha onda nima his qilganimni his qil, iltimos! O'lmasdan avval o'lgan men ekanman, Hasrat emas. Yanglish hayotni to'g'ri yashashga harakat qilgan men ekanman, Hasrat emas. Men o'lmasdan avval o'lib, mozorga ham kiribman, men o'zimni qidiribman, lekin topa olmabman. Qabrni ochdirdik, ichi bo'sh. DNK testi qildirdik, natija ijobiy. Hasrat ona, men Umid... Onam olamdan o'tdi, lekin haqiqiy onamni menga hadya qilib qoldirdi, bundan keyingisi boshqa bir hikoya...



UMIDSIZLIK SO'ZINING ICHIDA HAM
UMID BOR, QO'SHIMCHALARDAN QUTULA OLSANG,
YO'L SO'NGIDA BAXT BOR

Ethem Emin Nemutlu

NOTO'G'RI HAYOT TO'G'RI YASHALMAYDI

Tarjimon *Narzullayeva Sitora*

Bosh muharrir *M. Nishonboyeva*

Dizayner rassom *Sh. Odilov*

Musahhih *A. Yunusov*

Kompyuterda sahifalovchi *Sh. Axrorova*

Nashriyot litsenziya AA №2549. 28.03.2022.

Toshkent shahar, Chilonzor tumani,

Bunyodkor ko'chasi, 44^A-uy.

Bosishga ruxsat etildi: 29.11.2022.

Bichimi: 84x108 $\frac{1}{32}$. Ofset bosma.

"Adobe Garamond Pro" garniturası. Bosma tabog'i: 10.

Adadi: 2000. Buyurtma: 22-21

"Dizayn-Print" MChJ O'IchK bosmaxonasida chop etildi.

100054, Toshkent shahar, Cho'pon ota ko'chasi, 28^A-uy.

"Xasanov Farxod" YTTda muqovalandi.

100054, Toshkent shahar, Cho'pon ota ko'chasi, 28^A-uy.

TEZ KUNDA BOOK PRESSDA



Book Pressni ijtimoiy tarmoqlarda kuzatib boring.



/press.book

35000

Noto'g'ri HAYOT To'g'ri Yashalmaydi

"O'lmasdan oldin o'lish" fikrini qabul qilgan, o'z joniga qasd qilgan va o'ttiz yildan buyon qamoqxonada yashab kelgan bir ayol...

Hasrat Qurtulish; giyohvand moddalarga berilgan, erini o'ldirishda ayblangan va hayotdan allaqachon voz kechgan bir ayoldir. Yana bir bora joniga qasd qilish urinishidan so'ng, psixolog muolajasini boshlaydi. Bu safar psixolog boshqacha edi. Birinchi marotaba qamoqxonada bir bemorni davolayotgan Psixolog Efe Toshchi, Hasratning hayot hikoyasini eshitganidan keyin unga yordam berishga qaror qiladi. Bu yordam yo'lida qayg'u va umidning bir biriga ta'sir qilgan hikoyasi boshlanadi.

ATHAM AMIN NEMUTLU

